

Bk

Birinchi
kitobim

БИРИНЧИ КИТОБИМ


A painting depicting a village scene with several buildings and tall, thin trees. In the foreground, there is a large, detailed portrait of a man's face, rendered in a style that blends with the background. The overall color palette is warm, with greens, yellows, and browns.

ZULXUMOR
ORIF JONOVA

ЗУЛХУМОР ОРИФЖОНОВА

SOG'INCH
SUVRATLARI

СОФИНЧ СУВРАТЛАРИ



ZULXUMOR
ORIFJONOVA

SOG'INCH SUVRATLARI

Badiiy publitsistika

«Navro'z» nashriyoti
Toshkent – 2019

BBK 84.(5Y36)
UO'K 815.624
A-01

Orifjonova, Zulxumor
Sog'inch suvratlari (Badiiy publitsistika), Tosh-
kent: «Navro'z» nashriyoti, 2019-y. 84 bet.

Mas'ul muharrirlar:

Ahmadjon MELIBOYEV,
Aziz SAID

*Zulxumor bolalik xotiralari, kitoblar mutoalasi-
dan olgan taassurotlari orqali o'quvchini bugunning dol-
zarb muammolariga yetaklab keladi. Xalq o'yinlarining
tiklanishi, Orol fojeasi, kitobxonlikka ishtiyoqning o'zga-
rayotganligiga kuyunchaklik bilan e'tiboringizni tortadi.
Shuning bilan birga dorbozlik san'atining mohir ustalari
mahorati, kurashdagi milliy atamalarimizning dunyo tili-
ga kochayotganligidan faxr tuyg'ulari aks etgan maqolalar
o'quvchini befarq qoldirmaydi.*

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin semi-
narida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» jamoat fondi tomo-
nidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-563-06-3

© Zulxumor Orifjonova, 2019-y.
© «Navro'z» nashriyoti, 2019-y.

«DURRA»DAN HAYOTGACHA

Universitetga shoshar ekanman, ko'p qavatli uylar oldida o'ynayotgan uch-to'rt bolakayga ko'zim tushdi. Ularning suhbatini eshitib, hayron bo'ldim, qo'ng'iroq ovozlari qadamim sekinlashishiga sabab bo'ldi: «Durra tashlang, durra tashlang, Sochi uzun qizga tashlang. Sochi uzun qiz bo'lmasa, qoshi qaro qizga tashlang...»

Bundan bir necha yil avval qishloqda tortishib qolgan tengdoshlarimga o'zim uchun go'daklikdan sevimli «Durra» o'yinini o'rgatganim esimda. Qadrdon o'yin xotiralari meni bolalikka, qishloqqa tomon boshladi. Beixtiyor ularga qo'shilib o'ynagim, yana o'sha uzunsoch, qoraqosh qiz o'rnida bo'lib qolgim, durrachaning ortidan yugurgim keladi. Aynan mana shu o'yinni deb kunda o'sma qo'yishlar, ko'chamizdagi eng sochi uzun qiz bo'lay deb qirqta kokil qilib o'rishlar... bari yodimda.

...Mahalladosh qizlar bilan bahorni qanchalar kutganimizni o'zimizdan bo'lak kim ham bilardi, o'shanda. Chunki ko'klam biz uchun o'yinlar mavsumi edi. Maktabdan kelamiz-u, bir to'p bo'lib o'yin o'ynaymiz. Chekimizga tushgan durrachalarni galma-gal olib chiqamiz. Qizlar-

ning omadi kelsa, boshiga ro‘mol, o‘g‘il bolalar g‘olib bo‘lsa – belga belbog‘ bo‘ladi-da. Bolalar bilan doira yasab, durrachani o‘ziga yaqinroq dugonasiga tashlash, qoshim qora bo‘lsin deb, o‘sma qo‘yib chiqish qizlar orasida odat tusiga aylangan edi. Bu kabi o‘yinlar bolalikdan qon-qonimizga singib ketgan, ba’zida quyoshning qanday qilib ko‘cha boshiga borib qolgani ni bilmay ham qolardik.

Navro‘z bayrami kunlarida esa xalq o‘yinlari avvalgidan ko‘proq o‘ynaladi: «beshtosh»lar cho‘ntakka solinadi-yu, hamma qizlar arqon tortish tomoshasiga oshiqadi. Mahallamiz bolalari oftobda toblanadi, chiniqadi, g‘oliblikka oshiqadi... Nihoyat, bir tomon ustun keladi, ikkinchi tomon keyingi «uchrashuv»ni kutadi.

Biz esa «oq terakmi – ko‘k terak»ka to‘xtalamiz. Ikkita jamoa tuzamiz, bir-birimizning qo‘llarimizdan tutib, to‘siq yasaymiz. Raqib tomon kim kerakligini aytadi, tutqun bo‘lib qolmaslik – tanlangan bolaning vazifasi. O‘ylab qolaman, aynan bolalik paytlarimizdan – ko‘ngilga yaqin bu o‘yinlarni o‘ynay boshlagan davrlardan boshlab bizga to‘siqlarni yengib o‘tish uqtirilganday...

Yalpiz terish uchun Mingtepaga chiqamiz. Qayoqqa borsak, qolgan qo‘shni bolalar ham chumchuq galasiday ortimizdan ergashadi.

Qizlar sochlariga tolpopuklar taqsa, chaqqon o'g'il bolalar arqonni daraxt shoxiga bog'lab, arg'imchoq yasaydi. Etaklar esa yalpizlar bilan to'ladi. Bizni hovuchida tutib turgan tepaliklar quvonchimizga, baxtiyorligimizga sherik. Yana o'yin boshlanadi. Tepaliklar oralab sado keladi: «Ana do'ppi, shuginani kim oladi!..»

Yo'l bo'yi o'ylab kelayotgan qadrdon xotiralarni meni darsda ham tark etmaydi. Bolalikdan menga tanish o'yinlarni asta-sekin qog'ozga tushira boshlayman. «Oq terakmi, ko'k terak?», «beshtosh», «durra», «arqon tortish», «quvlas-hmachoq»... Guruhimizda barcha viloyatlardan talabalar bor, yonimdagi dugonamni so'roqlayman: «Sizlarda qanday milliy o'yinlar bor?». Qarangki, ro'yxat butun guruh bo'ylab davom etadi: «chillaki», «happak tosh», «kunjak oldi», «quloq cho'zma», «kurash», «uloq», «chavgon»... Mendagi hayajon endi auditoriyaga-da, ko'cha boshlaydi.

Bizni mana shu o'yinlar ulg'aytirdi. Balki avvallari ularning soni biz bilgandan ko'ra ko'proq bo'lgandir. Xo'sh, xalq o'yinlarining hayotimiz davomida tutgan o'rni, ahamiyati qanday? O'yin o'ynagan bola o'ynoqi bo'ladi deyishadi, biroq xalq o'yinlari tarbiya vositasi. Ular birlikka o'rgatadi, dadillikka, chaqqonlikka, botirlikka tayyorlaydi. Inson bolalikdan

o'yin o'ynab ulg'ayadi, so'ng o'qish, mehnat... Hayotga tayyorlov – milliy o'yinlarimiz vazifasi. Bolalikning ajralmas bo'lagi bo'lmish bu o'yinlar ko'magida inson chiniqadi, jismoniy baquvvat bo'ladi, ham aqlan rivojlanadi.

Har bir qishloq, tuman va viloyatning milliy o'yini, urf-odatlar bor desam, ishonavering. Fasllarga xos mavsumiy o'yinlari ham mavjud. Ko'klamda qizlar «tolbargak» taqishsa, yomg'ir yoqqanida «yomg'ir yog'aloq» deb tashqariga shoshadilar. Danak, yong'oq o'yinlari ayni kuz paytida o'ynaladi. Milliy bayramlarda esa erkaklar ot choptirib, ko'pkari o'ynaydi... Xalqimizning necha ming yillik tarixga ega ushbu o'yinini tomosha qilish uchun tumonat odam yig'iladi, bolalar varrak uchiradi, arg'imchoq yasashadi. Bahor qo'ynida ko'klamiy sayillar, xalq sayillari boshlanadi.

Navro'z bayrami, turli marosimlar qadimdan milliy o'yinlarsiz – kurash, ko'pkari (uloq), poygasiz o'tmagan. Bularni xalq og'zaki ijodining barcha turlari, dostonlar orqali bilib olishimiz mumkin. Chindan, dostonlar xalq o'yinlari bilan tanishishimizda, ularni o'rganishimizda muhim manba hisoblanadi. Misol uchun, «Alpomish»ni o'qib, kurash, poyga, uloq, qilichbozlik, kamondan o'q otish, merganlik kabi o'yinlar bilan tanishamiz. Ular Alpomishning jismoniy

yetukligida nechog'lik muhim ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ot o'yinlari, dor ustidagi mashqlar, tosh ko'tarish, arqon tortish, bilak kuchini sinash, xo'rozlar jangi, eshak mindi – bu o'yinlarning deyarli barchasi hozir ommaviy bayramlarda, milliy tadbirlarda qo'llanilmoqda. Bu o'yinlarda xalqimiz turmush tarzi, qarashlari o'z aksini topadi.

Xalq o'yinlari haqida ma'lumot yig'ar ekanman, dostonlardan tashqari, ajdodlarimizning asarlarida ham bu to'g'rida qimmatli ma'lumotlar bizgacha yetib kelganligini bilib oldim. Masalan, Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida kurash haqida, Alisher Navoiyning qator asarlarida ko'plab milliy o'yinlarimiz haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk»ida xalq o'yinlarining bir yuz ellikdan ortiq turi mavjudligi aytib o'tilgan. Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar»ida ham Mirzo Boburning bolaligi tasvirida opasi Xonzodabegimning «chilla» o'yinini o'ynayotgani tasvirlangan. Bu kabi manbalardan bilishimiz mumkinki, milliy o'yinlarimiz ko'p asrlik tarixga ega.

Bugun-chi? Ular xalqimiz orasida nechog'lik ahamiyatga ega? Hozir ko'plab o'g'il-qizning xalq o'yinlari haqida bilmasligiga sabab nima? Bundan uch-to'rt yil avval ham o'ynalayotgan

«chillak», «happaktosh»lar yildan yilga unutilib borilayotganday...

Bozor rastalarini aylanar ekanmiz, yuzlab turdagi o'yinchoq bilan to'la do'konlarga beixtiyor ko'zimiz tushadi. Ota-onalar farzandi uchun xarid qilayotgan turli o'yinchoq to'pponcha, al-lambalo uslubda kiyintirilgan rang-barang, yaltiroq qo'g'irchoqlar ko'zni oladi. Bolalar qo'liga turli o'yinchoqlarni tutqazishdan avval ularga biz uchun tanish o'yinlar haqida so'zlab berish, o'rgatish – vazifamiz! Axir, xalq o'yinlarining hayotimizda o'z o'rnini borligini his qilish kattalar uchun bolalikka qaytish, bolalar uchun esa aqlan va jismonan sog'lom voyaga yetish, asosiysi, milliy o'zlikni anglash imkonini beradi. Bola qalbida xalq o'yinlariga muhabbat uyg'otish milliy qadriyatlarimizni kelajakka eltuvchi ilk qadamlardir.



BAXT HOVURI

Tavba, yoz chog'i yomg'ir yoqqanida negadir ko'chaga oshiqaman. Yer bag'ridan havoga yoyilayotgan taftni – tuproq hidini to'yib-to'yib simirgim keladi va shundan yuragim hovuri bosiladi. Aslida, yomg'irdagina emas, qishlog'imning har burchida taft sezaman: sodda, dilgir va jaydari odamlar chehrasida, chang so'qmoqda yalangoyoq chopqillab yurgan bolalarning sho'xchan kulgusida, tashna giyohlar joniga huzur bag'ishlayotgan dehqonning reza-reza peshona teri-yu, rayhonlar bo'yida... hamma-hammasida. Bolaligim unda tetapoya bo'lgan, unda maktabga borganman, ilk marotaba qo'limga qalam olganman... Onam sochlarimni mayda o'rib, gulpopuklar taqqanida mehr tuyganim ham o'sha. Quyoshdan-da taftliroq bu ko'zlar Vatan suvratini o'zida jo qilgandek. Bularning bari ona qishlog'im bilan bog'liq. Shuning uchun ham Vatanni onaga qiyoslashar. Xullas, yerning kulguchidagi bu baxtiyor maskan, bu mo'jaz zamin – qadrdon qishlog'im.

Qishloq ahlining ishonchini yelkamga ortmoqlab, dovon oshib, poytaxtga borar ekanman, birdan izimga o'girildim: ne-ne sirlarni

bag'rida yashirib yotgan azim tog'lar, salqin havolarni dimoqqa eltar qorli cho'qqilar, g'uj-g'uj hosilidan shoxlari qayishgan sarxil mevali daraxtlar va yana non isi... xayolimni o'g'irlaydi. Shunda yuragim hapriqib, bir boshqacha bo'lib ketaman. Sog'inch orzularimiz bilan uyqashib ketgandek.

Mana, bugun ham shu o'ylar og'ushidaman. Farqi: qishloqda o'zgarishlar katta. «Katta»lardan eng avval ko'z oldimda nima gavdalanadi, bilasizmi, vodiyni quvonchga to'ldirgan temiryo'l. Qamchiq dovoni orqali o'tgan temiryo'lda poyezd hayqirig'ini tinglayman. Hayqiriq ortida millionlab vatanparvar insonning mehnati-yu zahmatini sezgandek, qalbidamda g'urur o'sgandek, ulg'aygandek his qilaman o'zimni. Bu daf'a tog'lar ham pastdek ko'rinib ketadi.

Qalbni ulkan maqsadlar sari chog'lovchi yo'llar ravon. Ko'k quchog'ini to'latib-to'latib, chax-chaxlab parvoz qilayotgan sayroqilar safida qanot yozib uchib borayotgan «po'lat qushlar» esa Vatanimiz bayrog'ini tobora balandga ko'tarmoq uchun intilayotgandek.

Istiqlol atalmish ziyo xalqimiz qalbiga nur indirdi, baxt yog'dirdi. Ana, tong chog'i maktab sari oshiqayotgan o'g'il-qizchalar ko'ziga boqing. To'y-tomoshga to'rida savlat to'kib o'tir-

gan bobolar duo-yu nasihatiga quloq osing. Momolarni tinglang. Baridan baxt hovuri taraladi va negadir shu damda buvimning bir gapi, yomg'ir tuproq hidini dimog'imga eltgani kabi, dilga taskin beradi: «Senda o'z orzularim ushlayotganini ko'raman, qizim».

«SHARQIY DARVOZA»

Quyosh hovlimiz to'ridan bosh ko'taradi. Ehtimol, oynavand ayvonimiz ham shunga mos qurilgan chiqar: tong chog'i shulalar o'zini oynaga solib, ajib manzara kasb etadi. Xuddi shu tomonda – sharqiy tarafda ikki yarim ming yillik tarixga ega tepaliklar bor.

Mingtepa... Narvon osha qarasam, oftob nur taratib, tepaliklar ko'ksida qulluq qilayotgandek ko'rinadi.

Bolalikdan tarix bilan yondosh yashash, uning bag'rida ulg'ayish, bora-bora ko'ngilda unga mehr va hatto qiziqishlarning ortishiga sabab bo'lar ekan. Otam Mingtepa haqida aytib bergan haqiqatlar bilan esa keyinchalik... darsliklarda tanishdim.

Farg'ona yurtimizninggina emas, balki Markaziy Osiyoning ham ko'hna hududlaridan.

Mingtepa esa, shu qadim zaminning muhim markaziy qismi. Ko'p asrlik tarixga ega Ershi shahridan bugun Marhamat tumanida azim yodgorliklar saqlanib qolgan. Kunlar isishi bilan arxeologlar g'imirlab qoladigan tepaliklar bag'rida necha minglab sir-sinoat bor. Marhamatliklar Mingtepani ochiq osmon ostidagi muzey deb ataydi.

Avvallari butun bir davlat markazi bo'lgan shahar bugun tepaliklar ostida. Bu yerdan topilgan mudofaa devorlari, ichki va tashqi yo'llar, qal'a o'rni, ko'plab osori atiqalar nafaqat qadimshunoslar uchun, balki biz uchun ham qimmatli, qadri. Ular tarixni yanayam yaxshiroq bilmoqqa yo'l ochib kelayotir.

2012-yildan boshlab o'zbekistonlik arxeologlar Xitoy arxeologiya instituti mutaxassis-lari bilan Mingtepa xarobalarini o'rganib, Ershi shahrining, umuman, tarixning yangi qirralarini ochmoqdalar. Qazishmalar davomida shaharning ikki qismdan iborat ekani, mudofaa qismi haqidagi yangi ma'lumotlar, minglab sopol parchalari topildi. Mingtepaning taxminiy xaritasi yaratildi. Ana shu xaritaga asoslanib arxeologlar izidan borsak, shaharning ikki, ya'ni sharqiy va janubiy darvozalari bo'lgani ayonlashadi. Bularning bari qadimgi Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarga aynan mos keladi.

Tarixan olib qaralsa, Ershi shahridan Buyuk ipak yo'li o'tganligi shaharning muhim savdo markazi bo'lganligidan dalolat beradi. Aynan shuning uchun ham tepaliklarga olib boruvchi yo'lning nomi «Buyuk ipak yo'li» deb nomlanadi. Samoviy otlari bilan mashhur bo'lgan ushbu maskanda necha asrlar avval turnaqator karvonlar to'xtab o'tgan, bu esa xalqlar, madaniyatlar birlashuviga, tarixlar tutashuviga zamin hozirlagan.

Bugungi kunda «Katta tosh» ma'nosini anglatuvchi Ershi (hozirgi Marhamat tumani)ni kezar ekansiz, tepaliklarga duch kelasiz. Ularni mana shu «katta tosh» parchalariga mengzaysan kishi. Qorovultepa, Zindontepa, Zig'irtepa, Jung'ortepa, Alitepa, Norkatepa, Munchoqtepa, Lo'mbitepa, Qoratepa, Oq to'nli ota... har birining o'z tarixi, o'z kechmishi, o'z afsonasi bor. Andijon viloyatida ro'yxatga olingan uch yuzta madaniy merosning uchdan bir qismi ham aynan mana shu tepaliklar nomi bilan bog'liq.

Mingtepa – men tug'ilgan tuproq. Uning bag'rida bolaligim bilan ulg'aydik. Tepaliklar bolaligimni yelkasiga opichlab, ko'nglimga ming bir orzular joyladi. Hamon esimda, qo'shni bolalar bilan eng baland tepalikka chiqib, uzoq-uzoqlarni ko'zlaganimiz, nigohlarimizni olis-olislarga qadaganimiz; otlar-

ning dupur-dupuri-yu karvonlar sadosiga, tepaliklarning sukutiga – tarixning aytmishlariga o‘zimizcha quloq tutganimiz. Ana shunday kunlarning birida tepaliklar bag‘rida buloqqa duch kelganimiz yodimda. Mingtepa bag‘ridan mo‘jiza topganimiz bizni qanchalar quvontirgandi o‘shanda. Buloq suvidan to‘yib-to‘yib ichgandik. O‘sha qaynar buloq bizni tepaliklarga oshno qilib ulgurgandi.

Bugun ham quyosh hovlimiz to‘ridan chiqdi – Mingtepaning «Sharqiy darvoza»sidan nur socha boshladi. Ko‘hna Ershi o‘z bag‘rida saqlayotgan sir-asrorlarning ochilishiga yangi qadam bo‘lib kirib keldi go‘yo.



OQ KEMA

Orolqumda yashovchi bolaning bobosi ertak aytdi. Bir vaqtlar to'lib-toshib turgan dengiz haqida. Endi bola chelakda suv ko'tarib, Orolning qumga to'lgan bag'riga suv quyay, mitti orzulari esa uni uyg'otolmasdi. Bir chelak suv bola ko'ngliga, uning daryo-daryo orzulari esa Orolga umid berdi. Kun sayin bepoyon kenglikka aylanib borayotgan Orol bag'ri quriy boshladi, bolaning umidlari so'na boshladi. U dengizchi bo'lmoqchi edi...

O'rozboy Abdurahmonovning «Orol qanday quridi?» nomli kitobida shunday so'zlar keltirilgan: «Dengiz qirg'og'idan tobora olislab borayotgan oq kemani ko'rganmisiz? Xayrlashayotib yuraklarda ayriliq tuyg'ulari naqadar jo'shadi. Keling, yana bir bor ko'z oldingizga keltiring, oq kema qirg'oqdan olislab ketmay, aksincha, dengizning o'zi oq kemani qirg'oqda yetim qoldirib, suvlari tortilib, ko'z oldingizda g'oyib bo'ladi...».

2016-yil. Universitetda bizga o'tilayotgan darslar orasida ekologiya fani ham bor. Atrof-muhitning ifloslanishi, mahalliy, mintaqaviy, global muammolar... barini yil davo-

mida sekin-asta o'rganib bordik. Ular ichida Orol dengizi muammosi dunyoviy miqyosdagi umumiy muammomiz, umumiy dardimiz edi. U haqda yozadigan bo'ldik. Negadir miyamga umumiy gaplardan bo'lak hech nima kelmaydi. Holbuki, maktab chog'idan geografiya fanida o'qitilgan. Orol dardi bilan avvaldan – bolalikdan tanishmiz!

Har bir material uchun vaqt kerak. Ba'zan soatlar, ba'zan kunlar, oylar... yillar. Orol haqida yozish odamni o'yg'a toldiradi. Qaniydi, qog'oz qoralagan bilan uning qaqrab yotgan bag'ri suvga to'lsa, to'lqinlar qayta mavjlansa, o'sha biz sog'ingan oq kemalarning yelkani quloch yoysa, ko'kka ko'tarilsa.

Orol – Markaziy Osiyoning yopiq suv havzasi edi. To'rt tomoni cho'l. To'rt tomoni quyoshdan tovlanib turuvchi qum zarralari. Cho'lda ketayotgan odamning joniga oro kiruvchi ham mana shu dengiz shabadasi. Unga keladigan, uni to'ldirib turadigan najot esa, Amudaryo va Sirdaryo edi.

Orol tarixini bilmagan kim bor, uning o'tmishidan kim bexabar?! Yaraga tuz sepkan kabi qalqib tushadi kishi. Lekin aynan mana shu o'tmish dengiz nomini o'zgartirdi, aynan mana shu tuzlar dengiz bag'rini suv o'rniga to'ldirdi.

Oltmishinchi yillardan boshlab Orol bizdan uzoqlasha boshladi. Ikki daryoning suvi hisob-siz sug'orishga sarflandi.

1989-yili Orol dengizi ikkiga – katta va kichik Orolga bo'lindi.

Orolbo'yi aholisi erta tongdan yuzlariga shamol keltirgan tuz bilan uyg'onishdi, hayvonot olami tuzlanish degan kasallikdan yo'q bo'la boshladi. Chunki giyohlarning yaproqlarida tomchi shudringlar o'rniga tuzlar qo'nim topdi, endi dengizning mayin va sof shabadasi sog'inchli o'tmishga aylandi, avvalgi to'lqinlar ovozi sukunat egalladi.

Odamlar «dengiz quridi» deb emas, u ketib qoldi, bizni tashlab ketdi deya ta'kidlashardi. Dengiz – xalqning noni edi!

Bir necha yil avval mutaxassislar tomonidan shaharlar bo'yicha bir kunda necha litr suv ishlatilishi yuzasidan hisob-kitoblar olib borildi. «Rossiyada 150 litr, Germaniyada 200 litr, Toshkentda esa 700 litr». Bu odam boshiga bir sutkalik suv sarfi. Biroq, aslida, bunday hisob-kitoblarda o'rtacha natija olinadi. Orolbo'yi xalqlarining ko'rsatkichi atigi 5 litr...

2017-yil. May oyi natijalariga ko'ra, yurtimizda yerosti suvlarining yarmidan ko'pi tugash xavfi ostida ekanligi e'lon qilindi.

Yer ustidagi dengizimizning chekinishi, yer osti suvlarimizning tobora kamayib borishi barchamizni hushyor torttirishi kerak. Buning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-mayda imzolangan «2017–2021-yillarda yer osti suv zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ko'ngilga taskin beradi, xalqimizga odamlarimizga yana bir mas'uliyatni yuklaydi. Axir, suvni asrash – bu kelajakni asrash degani.

Barchamizga ma'lum, Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2017 – 2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini obodonlashtirish hamda Mo'ynoq tumanini 2017 – 2018-yillarda iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus qarorlar qabul qilindi. Buning natijasida, ayni paytda, ushbu, hududda ham umidbaxsh o'zgarishlar yuz bermoqda. Misol uchun, shu yilning 1-iyunida Mo'ynoq shahriga 101 kilometrlik «Qo'ng'iroq – Mo'ynoq» avtomagistral suv tarmog'i tortilib, ichimlik suvi olib kelindi. E'tiborlisi, ushbu muhim loyiha nihoyatda qisqa vaqt – atigi besh oy ichida amalga oshirildi. Bu voqea mo'ynoqliklarga cheksiz quvonch va umid bag'ishladi. Ta'bir joiz bo'lsa, musaffo ob-hayot Orol ketgach huvillab

qolgan yuraklarga toshqin daryo singari oqib kirib, ularni to'ldirgandek bo'ldi. Eng muhimi, Mo'ynoq ahlining ko'nglida kelajakka umid va ishonch tuyg'ulari qayta uyg'ondi.

*«Orolning joni orolchalar qo'lida,
Orolchalar esa odamlarning ko'ksida,
Odamlarning ko'ksi esa bir-biridan suv ichadi»*, – degan edi taniqli shoir Muhammad Yusuf.

Odamlarning ko'ksi bir-biridan suv ichadi...
Bir-biriga bo'lgan mehrdan suv ichadi. Mehr bor joyda kelajakka umid, ishonch aslo so'nmaydi.



TEKIN MASLAHAT

Kitoblar – qadrdonimiz, sirdosh, maslakdosh va yo‘lboshchimiz. Oddiy ko‘ringan oq qog‘oz qatidagi so‘zlar dunyoni turfa rangda chiza oladi. Kitobxon yaxshi asar o‘qir ekan, u qahramonlar hayotida yashay boshlaydi: ular bilan birga kuladi, g‘amga to‘ladi, ba’zida sahi-falarga ko‘zyoshi tomchilaydi.

Gazeta-jurnallarni kuzatar ekanman, tala-ba-yoshlarning, hunarmand, musiqashunos, kutubxona xodimlari va boshqa kasb egalari-ning kitobga munosabati, qizg‘in fikrlarini o‘qib qanchalar quvondim. Auditoriyalarda, kitob do‘konlarida, kutubxonalarda, hattoki poyezd stansiyalarida ham yoshlar qo‘lida kitob!

Biroq ba’zan dars yakunida ayrim tengdosh-larim o‘qituvchimizdan so‘rab qoladi: «Biz-ga qanday kitob o‘qishni maslahat berasiz?», «Qaysi kitobni o‘qigan yaxshiroq?». Jurnal-istika yo‘nalishida o‘qiyotganim va bu faoliyat-ga endigina kirib kelayotganim bois atrofdagi voqea-hodisalarga avvalgidan-da sinchkov qa-rashga urinaman. Bunday savollar hammani birdek qiziqtiradi.

Poytaxt kutubxonalarida, institut-univer-sitetlarda kitob taqdimotlari o‘tkazilib, ga-

zeta-jurnallardagi yangi nashrlar haqidagi yangiliklar uzluksiz berib boriladi. Biroq bu o'g'il-qizlarning qancha qismini qamrab olayapti? Bir tengdoshimning: «Kattalar kitob tanlashda maslahat berishsa!» – degan fikrini o'qib qoldim. Chindan, bu borada maslahat har qadamda joiz. Yaqinda mashhur fransuz yozuvchisi Kafkaning yana nashrdan chiqqan «Jarayon» romanini o'qib tugatdim. Kitobdan chiqargan xulosalarimni, aynan shu kitobni tengdoshlarimga tavsiya qilmoqchi bo'ldim. Mana shunday o'ylar og'ushida borar ekanman, o'qish joyimiz oldida har kuni zumga bo'lsa-da talabalar xayolini o'g'irlyadigan yangilangan afishaga ko'zim tushdi. Shunda tasavvur qildim: afishadagi turli reklamalar qatoridan yangi nashrdan chiqqan kitoblar ham joy olsa. Rango-rang muqovadagi kitoblar shahar ko'chalarini bezab tursa... Radiolarda har tong jarang sochsa, oynayi jahonda bu haqda ko'rsatuvlar ko'p va xo'p tayyorlansa. Eh, bu xayolimdan o'zim ham entikib ketdim.

Yaxshi asar hamma davrda ham qo'lma-qo'l o'qilgan, bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Bugun ularni saralab mutolaa qilishda reklamaning o'zni beqiyos. Shunda qanday kitob mutolaa qilish kerakligini yo'l ustidagi «maslahat» orqali bilib olarmidik?!

SOG'INCHNING UCH SUVRATI

Quyoshni ko'rgim kelyapti. Ko'zlarim qamashsa-da, tik boqqim, nurlarida erkalangim kelyapti!

Bolalikdan qishloqda katta bo'ldim. Har tong onamning so'zlari, quyoshning nurlari meni uyg'otardi. Bahorning oftobli kunlarini orziqib kutardim. Ba'zan quyosh chiqishini ko'rish uchun hammadan oldin turib narvonga intilardim. Xuddi bu yog'dular birinchi bo'lib bizning hovlimizni yoritadigandek tuyulardi. Uning rangi qanaqa? Otaning, onaning mehri-ni ta'riflab berolmaganim singari, bu nurlarni ham ta'riflashim qiyin. Bilganim shuki, ular butun olamga jon baxsh etadi, mening yuragimga esa iliqlik.

Katta shahar, katta maqsadlar. Shunda ham yo'llarimni nurli quyosh yoritib turdi.

Onajon! Bugun uzoqroqdagi derazadan endigina mo'ralayotgan nurlarga qarab o'y-lab qoldim. Anchadan buyon nurdan bahramand bo'libman-u, biroq osmonga yaxshiroq boqmabman, quyoshga tik boqmabman, o'sha mening bolaligimdagi quyoshga!

Quyoshni ko'rgim kelyapti!



* * *

Matematika irodani mustahkamlaydi. Doskada yozilayotgan raqamlar ko'zimga xayollarimdek chalkash ko'rinadi. Hech qachon qo'limdan qo'ymaydigan suvratlar orasidan Oybekka ko'zim tushadi. Sochlari do'ppisidan toshib turguvchi o'sha Oybekka! Endi ko'zlarim oldida gullagan na'matak suratini chiza boshlayman.

Qadrligim o'n olti yosh. Tong otdi. Sevimli gullar yana gullabdi. Chog'roqqina xonada Oybekning she'rini o'qir ekanman, xayollarim beixtiyor mahallamiz boshida gullagan na'matak tomon oshiqadi. Pastqam devorga bo'ylashgan butaning oppoq gullari ham lojuvard osmonga zeb berishni istagandek yuqoriga intilardi. Butaning, oppoq gullarning, xazonrezda kaftlarni to'ldirguvchi mevalarning egasi yo'q. U xuddiki ko'cha boshiga ilingan munchoq. Qo'shni yigit o'sha oppoq gullar tasviri tushirilgan suvratni sovg'a qildi. Uning chetiga esa yoshlikning beg'ubor so'zlari bitilgan: «Bu bizning na'matak!». O'ylarim shu so'zlar bilan tugaganidek, chalkash raqamlar ham doska chetida birlashdi: «Matematika irodani mustahkamlaydi!».

* * *

Yanvar. Tun derazani chertib o'tadi. Rangsiz osmon endi qora tusga kira boshlaydi. Daraxtlarning yalang'och shoxlarini har zamon-har zamon turtib o'tib ketayotgan shamol nafasi ko'ksingga uriladi. Osmondagi bulutlar asta-sekin pastlay boshlaydi, atrofga yoyiladi, so'ng yuragingga kirib boradi. Sukunat. Sharqiroq soy lablari ham biror so'z demaydi.

Sen derazaga, deraza esa xira chiroqlar noriga suyangancha senga boqadi. Tun suvratini qog'ozga ko'chira boshlaysan. Qandaydir ranglar yetishmaydi. Qidira boshlaysan: tumanga ko'milgan simyog'ochlar, g'ira-shira chiroqlar...

Shunda xayolan endigina tuproqni yorib chiqayotgan kurtaklar sasi qulog'ingga eshitiladi. Boychechak! Borliq quchog'iga yashillik yuguradi, jon ina boshlaydi. Qog'ozning chetiga esa sog'inch rasmi tushiriladi...



RAHMAT SIZGA, TOG'AY MUROD!

Adabiyot – ko'ngilga yaqin, ko'ngilga malham. Xonaga kirib kelgan o'qituvchi bu gal mavzuni aytmadi-da, biz orziqib kutgan ma'ruzalaridan birini boshladi: *«U dunyo talashmadi, faqat o'qidi, faqat izlandi. Bir-biridan go'zal qis-salarini yaratdi. Bu bilan u «Mana men kimman!» degan bo'ldi. U o'zbek xalqiga haykal qo'ydi».*

Ustoz bizga jo'shib so'zlagan bu so'zlar Tog'ay Murod haqida, chin ma'noda o'zbek xalqiga haykal qo'ygan yozuvchi haqida edi.

Qo'limda «Otamdan qolgan dalalar» romanini. Haqiqatan, yam-yashil dalani tutib turgan-day, yuragim hapriqib ketdi. Kitobni o'qishga tutindim. Butun umr yeriga ishlov berib, ro'shnolik ko'rmagan birinchi avlod – Jamoliddin ketmon, o'z yeriga o'zi egalik qila olmagan Aq-rab qo'rboshi, «soddaligidan manqurt holatiga kelib qolgan» kenja avlod Dehqonqul... har biri o'z holicha alohida dostondek o'qiladi, ohangi qo'shiqdek. Balki bunga sabab yozuvchining xalq dostonlariga eshligidandir. Balki undan kengliklar, dalalar nafasi kelib turganidandir.

Kitobda 1991-yilgacha bo'lgan voqealar uch davr taqsimida qamrab olingan. Bir tengdoshim

asarning uchinchi voqeligi ta'sirli ekanligini aytib qoldi. Lekin romanning har satrida, har yozilgan so'zida yurakka yetib boruvchi dard, xalqimiz o'tmishidan chizgilar bor, menimcha. Bunda butun umr dalada ketmon chopib, ter to'kkan dehqon siymosi birgina Dehqonqul obrazi orqali ochib beriladi. «Dehqon – bag'ri qon» degan iboraning aynan shu davrga qarata aytilgani ham bejiz bo'lmasa kerak.

«1980-yil. 5-sentyabr. Ushbu yil kommunistik yili bo'ladi. Bolalar besh kun o'qib, paxta dalalariga yo'l oladilar» (*asardan*). Bu o'sha davrdagi eng katta fojialardan edi. Bu yerda bag'ri qon faqat dehqon emas, balki bolalar, ayollar, butun yurt, hatto tuproqning ham bag'ri qon, g'amga to'la.

Tog'ay Murod asarlaridagi qahramonlar haqida shuni aytish mumkin: «Asardagi odamlarga kitobxonning o'xshagisi, ularning o'rnida bo'lib qolgisi kelmaydi. Ulardan faqat o'rnak, saboq olsa bo'ladi».

«Saodat» jurnalining 1991-yilgi sonlarida «Iztirob ovozi» nomli maqolani o'qib qoldim. Xalqimizning urush paytlaridagi qiyinchiliklari tasvirlangan. Iztirob ovozi qanday bo'ladi o'zi?! Uni qanday eshitish mumkin?! Men mana shu iztirob sasini Dehqonqul boshlang'ich maktab

paytligida sinfdoshi Ziyodning paxta dalasida zaharlanib yotganida, kichikkina go'dak aynan paxta terimi sabab vafot etganida, onaning yig'isida, ayollar o'ziga o't qo'yib yoqib yuborganida, dalalarda kuylab yurgan qizlar-u o'g'illarning ozurda ovozlari ortida va yana... dalalar sukutida eshitgandek bo'ldim.

Asarda bir sahifada Mixail Dudin ismli shoirning she'ri keltiriladi:

*Ayollar yonmoqda O'zbekistonda,
Bu haqda yozilmas bizlar tomonda.
Bu qanday og'riqdir sho'rlik gullarni,
Olovga yo'llagan yoqqan gulxanni.
Bu haqda yozilmas, aytilmas so'zlar,
Kul ustida qanot qoqmas qaqnuslar.
Ularga ayondir men bilmagan sir,
Ne sabab olovga bo'ldilar asir...*

Dehqonqulning ayoli o'ziga o't qo'ydi. Bu davrda respublika bo'ylab 753 ayol taqdiri shunday yakunlandi. Ayol har davrda ham sabrli, bardoshli. Bu qanday zamon ediki, metindek qalblarni ham o'tga tashladi.

Haqiqatan, asardagi tasvirlangan o'zbeklarning ko'z yoshi peshona terlariga qorishib ketgan. Lekin shunda ham dehqonning, o'zbekning qalbida umid oppoq paxtadek barq uraverdi.

Bugun mening olis qishlog'im, Farg'ona vodiysi yo'llaridan to Surxon vohasigacha ham dalalar yastangan. Egatlardan paxtalar toshib turadi. Shukr, endi bari boshqacha. Tuprog'imizdan mustaqillik isi keladi, dehqonlarning yuzidan quvonch arimaydi, bolalar-u qariyalarning ko'zlariga shukronalik hissi, baxt surati chizilgan go'yo.

Qo'limdagi asarga qayta boqarkanman, bugun chindan ham yashil dalalar o'z qo'limizda ekanligini his qildim.

«Otamdan qolgan dalalar»ni to'lib-to'lib o'qidim, kulib-kulib o'qidim, yuragimni tilib-tilib o'qidim. O'zbek xalqining tarixini, o'tmishini, soddadilligi-yu bardoshini Dehqonqulning nigohlaridan uqdim.

Ko'z oldimda turgan dala esa otamdan qolgan meros. Buni yaxshiroq anglash baxtini berganingiz uchun rahmat sizga, Tog'ay Murod!



DORBOZ

Kundan-kun fayz kirib borayotgan kutubxonamdagi kitoblar bilan suhbatlashaman... Ba'zida ularning mazmuni haqida, ba'zan esa navbatdagi yozilajak material to'g'risida. Bu gal nigohimni ulug' shoirimiz Abdulla Oripovning ilk kitobi – «Mitti yulduz» o'ziga tortadi. Uni varaqlar ekanman, ilk sahifalaridanoq dorboz haqidagi misralarga ko'zim tushadi:

*Bulutlarga yondosh,
Osmon ostida
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz...*

Kutubxonadagi suhbat yangi mavzu tug'inishiga sabab bo'ladi. Dor ustida o'ynayotgan kishi holati ko'z oldimga keladi. Uning yaxlit tasviri bilan qiziqqa boshlayman: kiprikda yosh qalqib-qalqib turibdi, ko'zingni yumganing hamonoq, uzilib tushadi. Dorbozlik asli neligin shugina misraga falsafiy jo etolgan shoirga tahsinlar o'qiysan.

Bolalik paytlarim... Yoz mavsumi keldi deguncha, qishlog'imiz markazida dor o'yini-

ga chorlov yon-atrofni tutib ketar, biz bolalar bir-birimizni turtkilab-turtkilab tomoshaga oshiqardik. O'yinni tomosha qila turib yuragim orqaga tortardi. O'sha damda yon-atrofni «Barakalla, Yunusali!», «Yashang, Yunusali ota!» degan olqishlar tutib ketardi. Bugun ham tumanimiz markazida bo'layotgan dor o'yinlari tomoshasiga borsangiz, «Yunusali otaning nevarasi-da, bu botir yigit» degan gaplar quloqqa chalinadi.

Marhamat tumani markaziga kiraverishdagi uylar qatorida yashil devorgullar bilan o'ralgani hammaning e'tiborini tortadi. Biror marhamatlik yo'qki, bu yerga kelmagan, otaning suhbatini olmagan, bir piyola choy ustida miriqib gurung qilmagan bo'lsa. Darvoza oldiga yaqinlashar ekanman, bir guruh mehmonga ko'zim tushdi. Yunusali otaning suhbatini olishga men ga ham navbat yetarmikan, deb hovliga kirib bordim. Mehmonlarni bog' tomonga boshlab ketgan dorboz ota meni Zuhra ayaga topshirdi, bir tomondan yaxshi bo'ldi. Dorboz otaning qahramonliklarini avval boshda ularning umr yo'ldoshlaridan so'ramoqchi bo'ldim. Dorboz bo'lmoqlik uchun katta yurak kerak, dorbozning umr yo'ldoshi, onasi, buvisi bo'lish uchun esa yanada ulkanroq yurak zarur, nazarimda. Zuhra

aya ana shunday ayollardan. Yunusali ota hozir dor o'ynamayotgan bo'lsa ham, o'g'illari, nabiralari ota kasbini davom ettirishyapti. Zuhra ayaning: «o'g'illarimniyam, nevaralarimniyam dor o'yini oldiga o'zim yetaklab borganman», – deganlari ota kasbiga muhabbatning bosh sababchisi ekanidan dalolat.

Olti yoshli Doston – kenja dorboz. Bolakayning ko'zlarida qat'iyat bor. Meni butun boshli bog' bilan tanishtirib chiqqan ham mana shu kichkina bo'ldi. «Dorbozlar uyi» deb nomlanadigan bu bog'ga kirgan odamning hayrati oshadi. Bu oddiy bog' emas. Ariq yuzida nilufarlar ochilgan, har o'n qadamda supalar va bu joy dam olish maskaniga aylanib ulgurgan. Dov-daraxtlarga nihollik paytlaridanoq shakl berilgan, bugun esa shoxlari bo'y tortib ketgan bu daraxtlar ustida supachalar o'rnatilganiga nima deysiz? Bog' ichida yana bir xona bor. Kirgan inson dorboz otaning hunarmandchilik mahoratiga qoyil qoladi. Qadim omochlardan tortib, bugun dehqonga dastyor mehnat qurollarining barini uchratasiz.

Yunusali ota bilan dorbozlikning quvonchi haqida gaplashganimizda, dor o'ymiga usta olti yoshli nabirasini ko'rsatib: «Mana mening baxtim, mana mening quvonchim», – dedi. Haqiqat-

tan, kasbi davomchisiga qarab inson eng katta baxtni ko'ra oladi.

*Qilichning damiday arqon ustida
Ko'zlarini yumib yuribdi dorboz.*

«Dorboz»ni qayta-qayta o'qiyman, arqon ustida toyinmay, «naqadar epchil va chaqqon» borayotgan dorboz ko'z oldimda gavdalanadi. Bu tasvir, bu manzara hayotda qoqilmaslik sabog'ini berayotgandek bo'ladi menga.



INSON MANZARALARI

Frans Kafkaning «Jarayon» romani kitob javonimdagi ilk o'qiganim jahon adabiyoti namunalaridan. Asarni o'qib tugatgach, unda tasvirlangan jamiyatning ustidan goh kulging keladi, goh yig'laging. «Oshkora qotillik qissasi» asari bilan tanishishdan oldin, uning muallifi – kolumbiyalik Gabriel Garsia Marques ham Kafka asarlari bilan ko'proq tanishishga intilgani haqida o'qib qoldim. Kafkaning «Jarayon»i qanchalik mulohazaga chorlasa, ushbu qissa ham menda shunchalik qiziqish uyg'otdi.

Yigirma bir yoshli Santyago Nasarning o'limi tasvirlangan qissada yozuvchi ijodkordek emas, balki tergovchidek ishtirok etgan, nazarimda. Asarning boshida portugaliyalik dramaturgning: «Takabburlik bilan ham mehr qozonish mumkin», – degan so'zlari keltirib o'tilgan. Bu yerda takabburlik kim? Singlisining nomusi tufayli qotillikka qo'l urgan, odamlar orasida nafratga emas, balki mehrga loyiq topilgan aka-uka egizaklarmi? Kitobni o'qir ekanman, Santyagoni tuhmatga qo'ygan Anxela Vikarioining bir gapi e'tiborimni tortdi: «Takabbur er-

kaklarni jinim suymaydi». Uning bu gaplari o'zi turmushga chiqqan Bayyardo San Romanga qarata aytilgan edi. Demak, bu davrda odamlarning ko'pchiligi takabbur edi.

Santyagoning bevaqt o'limi yepiskopning ular yashaydigan qishloqqa tashrif buyurmaganini bilan bog'liqdek tuyuladi. Hattoki, yepiskop ham qadam bosmaydigan bu qishloqda kimning kim bilan ishi bor? Birgina uni kutib olish uchun odamlar uyidagi borini olib chiqadilar. Quloqni qomatga keltirib yuborguvchi xo'rozlar qichqirig'i qishloqni tutib ketgan. Xuddiki, butun qishloq odamlarini «uyqu»dan uyg'otayotganday, o'zligini bilishga chorlayotganday.

Qotillar yashiringan sut do'konining egasi «Faqatgina yosh bolalargina hamma narsaga qodir», – degan fikrni aytib o'tadi. Pedro va Pablo ham xuddi yosh bolalardek ortiq o'ylab o'tirishmadi. Lekin o'quvchi qahramonlar kechinmalarini kuzatar ekan, egizaklarning o'zi ham kimdir ularni to'xtatib qolishlarini chin dildan istayotganliklarining guvohi bo'ladi. Ammo hech kim ularni qaytarib qolmadi. Bunda bari oshkora tarzda yuz berdi.

Asar bilan tanishayotgan o'quvchi ham beixtiyor oshkora qotillikni kuzatgan odamlar orasida yuradi, ular bilan birga Santyago Na-

sarning o'limiga guvoh bo'ladi. Bu esa, yozuvchining mahoratidan dalolat.

Chavaqlangan Santyagoning ichki a'zolarini o'z qo'llari bilan ushlab, uyigacha kirib borishi menga O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanidagi Kimsanning ko'z oldida ustiga bomba tushib, jon taslim qilayotgan do'sti holatini eslatib yubordi. Ushbu ikki sahna kitobxon ko'z o'ngida ravon gavdalanadi. Bunday sahnalarni o'quvchi «ko'z yumib» o'qiydi. Yoki Santyagoning o'limidan so'ng uning tanasini qayta-qayta tekshirishlarini olaylik. Shahardagi bittagina shifokor ham, aksiga olib, safarga yo'l olgan. G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida mayitni yuvish ikkita mushtumdek bolaga topshirilishi, bunday ishlardan xabari yo'q bolalarning katta xatoga yo'l qo'ygani va qochib qolganliklari o'sha paytdagi zamonning notinchligidan darak bergan edi. Xuddi shu kabi ushbu qissada ham nima sababdan o'lim topayotganini so'nggi daqiqasigacha bilmagan Santyagoning hattoki yaralangan tanasi ham hurmat topmadi. Bu mudhish voqeaga faqatgina aka-uka egizaklar emas, balki butun boshli odamlar jamoasi aybdor edi.

«Nomus bu – muhabbat». Asarni so'zlab berayotgan qahramonning onasi unga bir paytlar

shunday deb aytgan edi. Kitobni o'qish davomida, demak, bu davrda muhabbat bo'lmagan ekan-da, degan achinarli xulosaga kelish ham mumkin.

Anxela Vikario – «farishta o'rinbosari» degan ma'noni anglatuvchi ism. Lekin bu ma'no qizning yolg'oni tufayli o'quvchining xayolidan ko'tariladi. Keyinchalik, uning o'n yil davomida xatlar bitishi, lekin bitta ham javob olmasligi, o'n yildan so'ng esa u bitgan xatlarning hech biri ochib o'qilmaganligi – Anxela uchun juda katta jazo bo'ldi, deb aytsa ham bo'ladi.

Oshkora qotillik – hammaning ko'z o'ngida yuz berdi. Oradan yigirma uch yil o'tsa hamki, bu qotillikning asosiy sababchisi topilmadi. Asarni tugatgan o'quvchilarning aksari qotillik sababchisi deb Anxelani aytsa, yana kimdir uning akalarini ayblaydi.

Bu yerda qotil aka-uka egizaklar, yolg'on so'zlagan Anxela, eshikni qulflab qo'ygan xizmatkor qiz – Divina Flor, qotillarni to'xtatib qola olmagan sutchi ayol, bir og'izgina ogohlantirishni o'ziga ep ko'rmagan xalq, omma, qishloqqa temiryo'l qurish rejasini oxiriga yetkaza olmagan Broyyan, sayohatga ketib qolgan bittagina shifokor, qishloqqa qadam ham bosmaydigan yepiskop va nihoyat, gullarga qarab

o'limni eslaydigan, o'n olti yoshli xizmatkor qiz Divina Florni muhabbatdan mahrum qilgan Santyago! Bularning barchasi mana shu mash'um fojia sababchilari.

Santyagoning o'limi go'yoki o'ziga o'zi pi-choq urgan jamiyat ahvoloti, chirkin holga kelib qolgan zamon qiyofasi, takabburlik bilan muhabbat qozonayotgan inson manzaralari edi.



HALOL

Qo'limda Tog'ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» asari. Bu galgi mutolaa har sa-fargidan boshqacha. To'xtalib-to'xtalib o'qiy-san. Chunki har bir sahifada or-nomus, g'urur-ning salobati bor. «Polvonlik bizga ota meros. Pushtdan pushtga, qondan qonga o'tib kel-yapti. Polvonlikning ko'zga ko'rinmas, til bilan tushuntirib bo'lmas shunday sirlari borki, uni faqat tomirida polvonlik qoni borlargina biladi, biz bilamiz. Bu sirlar hech bir kitobda yo'q». Bu qahramonimning haqiqati.

Buvinning dasturxon oldida o'qigan duolari doim men uchun muhim bo'lishi kerakday tuyuladi. Bolalikdan miyamizga quyulib qolgani-dek, duo yakunlanmaguncha barcha jam bo'lib tinglashi, keyin ishga, o'qishga tarqalishi odat. Uzundan uzoq duolarni tinglar ekanman, bu-vim aytadigan bir niyat doim e'tiborimni tor-tadi: «O'g'illarimizning yelkasi yer ko'rmasin, ilohim». Hozir kim ham kurash tushardi, bu-vim ajoyiblar-da, deb qo'yardim o'zimcha. Ush-bu niyat zamiridagi «Odamlar orasidan g'urur ko'tarilmasin» degan muhim hikmatni keyin

anglab yetdim. Qissani o'qirkanman, ko'z ol-
dimda buvimning duoga qo'l ochganlari, o'zini
kurashga chog'layotgan polvonlar, jonini hovu-
chida tutib turgan odamlar... qulog'im ostida
esa «Halol!» degan hayqiriq.

Shundan so'ng atrofga polvonlarning ko'zi
bilan qaramoqchi bo'ldim, ulardan o'tajak umr
bo'yilik kechinmalar meni tobora qiziqтира
boshladi. Uddalay olmadim. G'ururning yuki
xayollarimga og'irlik qildi. Atrofdan polvonlar
ko'zini qidirdim. Qay tomonga bormoq kerak?
Quyoshga bag'rini bergan vohagami yoki
dovon osha vodiy tomongami?! Haliyam to'y-
tomoshalar-u sayillarda odamlar o'rab olgan
«g'urur maydonlari»ga duch kelarmikanmiz?

Xalq g'ururi – kelajak degani. U yiqitmaydi,
qaddingni tik tutish uchun kuch beradi, ko'z-
larga tik qaramoqlikni o'rgatadi va ba'zan yiqil-
ganingda yana qayta maydonga yo'l ochib be-
radigan ham aynan o'sha – g'urur! Polvonning
afsusi esa dunyoni titratadi. Xo'rsiniq bilan
maydonni tark etayotgan polvon holati xalqqa
ko'chadi. Mana shu o'ylar bilan xayolimda ta-
rixdagi kurash maydonlariga kirib borgandek
bo'laman.

Urf-odatlarimizni o'zida boricha saqlab ke-
layotgan xalq og'zaki ijodi namunalariga qara-

sak, «Alpomish»dagi Barchinoyning shartlaridan biri kurash o'yini ekanini ko'ramiz. Demak, o'zbek milliy kurashi bugungi kungacha qadim va sharaflı yo'lnı bosib o'tgan, ildizi tarixga tutash. Hozirgi kunda xalqaro sport lug'ati tarkibidan o'rin egallagan «ta'zim», «kurash», «halol», «to'xta», «yonbosh» kabi atamalar necha-necha asrlar oshib bizgacha yetib kelgan.

Farg'ona kanali qurilishida polvonlarning ko'rsatgan jonbozliklari Said Ahmadning «Ufq» asarida mohirona tasvirlangan. Ularning kuch-quvvati, tantiligi kimlarni hayratga solmagan? Shundan bilamizki, xalq yukini qo'lidan oladigan, og'irini yengil qiladigan ham ular. Asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan polvonlar avlodi zanjiri uzilmasligi lozim, chunki ular xalqimiz orasida g'urur namunasi. Aytishlaricha, ko'p davralarda yelkasi yer ko'rmagan polvon yiqilsa, maydondan chiqib ketadi-yu, qaytib kirmaydi, qishlog'iga borishga ham oriyati yo'l qo'ymay, sarson-sargardon kezinadi. Qachonki o'zini yiqitgan polvonni mag'lub qilsa, yana kurash belbog'ini qayta taqishga o'zini haqli deb biladi. Polvon davraga kiradi, bu esa yo mag'lubiyat, yo g'alaba ostonasiga qadam qo'ydi degani. Biroq uning yelkasi yerga tekkani – yiqilgani.

Shu kabi xayollarim sababchisi bo'lgan kitobni tugatib, kutubxonadan chiqar ekanman, qahramonim Bo'ri polvonning bir gapi og'ir botib, o'yg'a toldiraveradi:

«...avlodlar almashgani sayin... yurak yo'qolib boryapti!

Jasad bor! Aql bor!

To'rt mucha bor! Kuch-quvvat bor!

Yurak yo'q!

Ko'krakda jon bor!

Yurak yo'q, yurak!..

Farzandlar hayotga beparvo qaraydi».

* * *

Poytaxt ko'chalari yanayam keng ko'rinib ketayotir. Kechagina e'lon qilingan yangilik yodimga tushadi: «Kurash» milliy sport turi tarixda ilk bor XVIII yozgi Osiyo o'yinlari dasturiga rasman kiritildi». Ko'z oldimda otameros kurash sirlari bilan raqiblarini dast ko'tarib ota-yotgan o'zbek polvonlari... qulog'im ostida esa «Halol!» degan hayqiriq.



MUNDARIJA

«Durra»dan hayotgacha.....	3
Baxt hovuri.....	9
«Sharqiy darvoza».....	11
Oq kema.....	15
Tekin maslahat.....	20
Sog'inchning uch suvrati.....	22
Rahmat sizga, Tog'ay Murod!.....	25
Dorboz.....	29
Inson manzaralari.....	33
Halol.....	38



ЗУЛХУМОР
ОРИФЖОНОВА

СОҒИНЧ СУВРАТЛАРИ

Бадий публицистика

«Navro'z» нашриёти
Тошкент – 2019

ББК 84.(5Узб)

УУК 815.624

A-01

Орифжонова, Зулхумор
Соғинч сувратлари (Бадий публицистика), –
Тошкент: «Navro'z» нашриёти, 2019 й. 84 бет.

Масъул муҳаррирлар:

Аҳмаджон МЕЛИБОЕВ,
Азиз САИД

Зулхумор болалик хотиралари, китоблар мутоаласидан олган таассуротлари орқали ўқувчини бугуннинг долзарб муаммоларига етаклаб келади. Халқ уйинларининг тикланиши, Орол фожеаси, китобхонликка иштиёқнинг узгараётганлигига куюнчаклик билан эътиборингизни тортади. Шунинг билан бирга дорбозлик санъатининг моҳир усталари маҳорати, курашдаги миллий атамаларимизнинг дунё тилига кучаётганлигидан фахр туйғулари акс этган мақолалар ўқувчини бефарқ қолдирмайди.

Ушбу китоб Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси утказган Республика ёш ижодкорларининг Зомин семинарида нашрга тавсия қилиниб, “Ижод” жамоат фонди томонидан молиялаштирилган.

ISBN 978-9943-563-06-3

© Зулхумор Орифжонова, 2019 й.

© «Navro'z» нашриёти, 2019 й.

“ДУРРА”ДАН ҲАЁТГАЧА

Университетга шошар эканман, кўп қаватли уйлар олдида ўйнаётган уч-тўрт болакайга кўзим тушди. Уларнинг суҳбатини эшитиб, ҳайрон бўлдим, кўнғироқ овозлари қадамим секинлашишига сабаб бўлди: “Дурра ташланг, дурра ташланг, Сочи узун қизга ташланг. Сочи узун қиз бўлмаса, қоши қаро қизга ташланг...”

Бундан бир неча йил аввал қишлоқда тортишиб қолган тенгдошларимга ўзим учун гўдакликдан севимли “Дурра” ўйинини ўргатганим эсимда. Қадрдон ўйин хотиралари мени болаликка, қишлоққа томон бошлади. Беихтиёр уларга қўшилиб ўйнагим, яна ўша узунсоч, қорақош қиз ўрнида бўлиб қолгим, дуррачанинг ортидан югургим келди. Айнан мана шу ўйинни деб кунда ўсма қўйишлар, кўчамиздаги энг сочи узун қиз бўлай деб қирқта кокил қилиб ўришлар... бари ёдимда.

...Маҳалладош қизлар билан баҳорни қанчалар кутганимизни ўзимиздан бўлак ким ҳам биларди, ўшанда. Чунки кўклам биз учун ўйинлар мавсуми эди. Мактабдан келамиз-у, бир тўп бўлиб ўйин ўйнаймиз. Чеки-мизга тушган дуррачаларни галма-гал олиб

чиқамиз. Қизларнинг омади келса, бошига рўмол, ўғил болалар ғолиб бўлса – белга белбоғ бўлади-да. Болалар билан доира ясаб, дуррачани ўзига яқинроқ дугонасига ташлаш, қошим қора бўлсин деб, усма қўйиб чиқиш қизлар орасида одат тусига айланган эди. Бу каби ўйинлар болалиқдан қонқонимизга сингиб кетган, баъзида қуёшнинг қандай қилиб кўча бошига бориб қолганини билмай ҳам қолардик.

Наврўз байрами кунларида эса халқ ўйинлари аввалгидан кўпроқ ўйналади: “бештош”лар чўнтакка солинади-ю, ҳамма қизлар арқон тортиш томошасига ошиқади. Маҳалламиз болалари офтобда тобланади, чиниқади, ғолибликка ошиқади... Ниҳоят, бир томон устун келади, иккинчи томон кейинги “учрашув”ни кутади.

Биз эса “оқ теракми – кўк терак”ка тўхталамиз. Иккита жамоа тузамиз, бир-биримизнинг қўлларимиздан тутиб, тўсиқ ясаймиз. Рақиб томон ким кераклигини айтади, тутқун бўлиб қолмаслик – танланган боланинг вазифаси. Ўйлаб қоламан, айнан болалиқ пайтларимиздан – кўнгилга яқин бу ўйинларни ўйнай бошлаган даврлардан бошлаб бизга тўсиқларни енгиб ўтиш уқтирилгандай...

Ялпиз териш учун Мингтепага чиқамиз.

Қаёққа борсак, қолган қўшни болалар ҳам чумчуқ галасидай ортимиздан эргашади. Қизлар сочларига толпопуклар тақса, чаққон ўғил болалар арқонни дарахт шохига боғлаб, арғимчоқ ясайди. Этаклар эса ялпизлар билан тўлади. Бизни ҳовучида тутиб турган тепаликлар қувончимизга, бахтиёрлигимизга шерик. Яна ўйин бошланади. Тепаликлар оралаб садо келади: “Ана дўппи, шугинани ким олади!..”

Йўл бўйи ўйлаб келаётган кадрдон хотиралар мени дарсда ҳам тарк этмайди. Болаликдан менга таниш ўйинларни аста-секин қоғозга тушира бошлайман. “Оқ теракми, кўк терак?”, “бештош”, “дурра”, “арқон тортиш”, “қувлашмачоқ”... Гуруҳимизда барча вилоятлардан талабалар бор, ёнимдаги дугонамни сўроқлайман: “Сизларда қандай миллий ўйинлар бор?”. Қарангки, рўйхат бутун гуруҳ бўйлаб давом этади: “чиллаки”, “ҳаппак тош”, “кунжак олди”, “қулоқ чўзма”, “кураш”, “улоқ”, “чавгон”... Мендаги ҳаяжон энди аудиторияга-да, кўча бошлайди.

Бизни мана шу ўйинлар улгайтирди. Балки авваллари уларнинг сони биз билгандан кўра кўпроқ бўлгандир. Хўш, халқ ўйинларининг ҳаётимиз давомида тутган ўрни, аҳамияти қандай? Ўйин ўйнаган бола ўйноқи бўлади дейишади, бироқ халқ ўйин-

лари тарбия воситаси. Улар бирликка ўртади, дадилликка, чаққонликка, ботирликка тайёрлайди. Инсон болалиқдан ўйин ўйнаб улғаяди, сўнг ўқиш, меҳнат... Ҳаётга тайёрлов – миллий ўйинларимиз вазифаси. Болалиқнинг ажралмас бўлаги бўлмиш бу ўйинлар кўмагида инсон чиниқади, жисмоний бақувват бўлади, ҳам ақлан ривожланади.

Ҳар бир қишлоқ, туман ва вилоятнинг миллий ўйини, урф-одатлари бор десам, ишонаверинг. Фаслларга хос мавсумий ўйинлари ҳам мавжуд. Кўкламда қизлар “толбаргак” тақишса, ёмғир ёққанида “ёмғир ёғалоқ” деб ташқарига шошадилар. Данак, ёнғоқ ўйинлари айни куз пайтида ўйналади. Миллий байрамларда эса эркаклар от чоптириб, кўпқари ўйнайди... Халқимизнинг неча минг йиллик тарихга эга ушбу ўйинини томоша қилиш учун тумонат одам йиғилади, болалар варрак учиради, аргимчоқ ясашади. Баҳор қўйнида кўкламий сайиллар, халқ сайиллари бошланади.

Наврўз байрами, турли маросимлар қадимдан миллий ўйинларсиз – кураш, кўпқари (улоқ), пойгасиз ўтмаган. Буларни халқ оғзаки ижодининг барча турлари, дostonлар орқали билиб олишимиз мумкин. Чиндан, дostonлар халқ ўйинлари билан танишишимизда, уларни ўрганишимизда муҳим ман-

ба ҳисобланади. Мисол учун, “Алпомиш”ни ўқиб, кураш, пойга, улоқ, қиличбозлик, камондан ўқ отиш, мерганлик каби ўйинлар билан танишамиз. Улар Алпомишнинг жисмоний етуклигида нечоғлик муҳим эканлигига гувоҳ бўламиз. От ўйинлари, дор устидаги машқлар, тош кўтариш, арқон тортиш, билак кучини синаш, хўрозлар жанги, эшак минди – бу ўйинларнинг деярли барчаси ҳозир оммавий байрамларда, миллий тадбирларда қўлланилмоқда. Бу ўйинларда халқимиз турмуш тарзи, қарашлари ўз аксини топади.

Халқ ўйинлари ҳақида маълумот йиғар эканман, дostonлардан ташқари, аждодларимизнинг асарларида ҳам бу тўғрида қимматли маълумотлар бизгача етиб келганлигини билиб олдим. Масалан, Ибн Синонинг “Тиб қонунлари” асарида кураш ҳақида, Алишер Навоийнинг қатор асарларида кўплаб миллий ўйинларимиз ҳақида маълумотлар келтирилган. Маҳмуд Кошғарийнинг “Девони луғотит турк”ида халқ ўйинларининг бир юз эллиқдан ортиқ тури мавжудлиги айтиб ўтилган. Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асарида ҳам Мирзо Бобурнинг болалиги тасвирида опаси Хонзодабегимнинг “чиллак” ўйинини ўйнаётгани тасвирланган. Бу каби манбалар-

дан билишимиз мумкинки, миллий ўйинларимиз кўп асрлик тарихга эга.

Бугун-чи? Улар халқимиз орасида нечоғлик аҳамиятга эга? Ҳозир кўплаб ўғил-қизнинг халқ ўйинлари ҳақида билмаслигига сабаб нима? Бундан уч-тўрт йил аввал ҳам ўйналаётган “чиллаки”, “ҳаппактош”лар йилдан йилга унутиб борилаётгандай...

Бозор расталарини айланар эканмиз, юзлаб турдаги ўйинчоқ билан тўла дўконларга беихтиёр кўзимиз тушади. Ота-оналар фарзанди учун харид қилаётган турли ўйинчоқ тўппонча, алламбало услубда кийинтирилган ранг-баранг, ялтироқ кўғирчоқлар кўзни олади. Болалар қўлига турли ўйинчоқларни тутқазидан аввал уларга биз учун таниш ўйинлар ҳақида сўзлаб бериш, ўргатиш – вазифамиз! Ахир, халқ ўйинларининг ҳаётимизда ўз ўрни борлигини ҳис қилиш катталар учун болаликка қайтиш, болалар учун эса ақлан ва жисмонан соғлом вояга етиш, асосийси, миллий ўзликини англаш имконини беради. Бола қалбида халқ ўйинларига муҳаббат уйғотиш миллий қадриятларимизни келажакка элтувчи илк қадамлардир.

БАХТ ҲОВУРИ

Тавба, ёз чоғи ёмғир ёққанида негадир кўчага ошиқаман. Ер бағридан ҳавога ёйилаётган тафтни – тупроқ ҳидини тўйиб-тўйиб симиргим келади ва шундан юрагим ҳовури босилади. Аслида, ёмғирдагина эмас, қишлоғимнинг ҳар бурчида тафт сезаман: содда, дилгир ва жайдари одамлар чехрасида, чанг сўқмоқда ялангоёқ чопқиллаб юрган болаларнинг шўхчан кулгусида, ташна гиёҳлар жонига ҳузур бағишлаётган деҳқоннинг реза-реза пешона тери-ю, райхонлар бўйида... ҳамма-ҳаммасида. Болалигим унда тетапоя бўлган, унда мактабга борганман, илк маротаба қўлимга қалам олганман... Онам сочларимни майда ўриб, гулпопуклар таққанида меҳр туйганим ҳам ўша. Қуёшдан-да тафтлироқ бу кўзлар Ватан сувратини ўзида жо қилгандек. Буларнинг бари она қишлоғим билан боғлиқ. Шунинг учун ҳам Ватанни онага қиёслашар. Хуллас, Ернинг кулгучидаги бу бахтиёр маскан, бу муъжаз замин – қадрдон қишлоғим.

Қишлоқ аҳлининг ишончини елкамга ортмоқлаб, довон ошиб, пойтахтга борар эканман, бирдан изимга ўгирилдим: не-не сирларни бағрида яшириб ётган азим

тоғлар, салқин ҳаволарни димоққа элтар қорли чўққилар, ғуж-ғуж ҳосилидан шохлари қайишган сархил мевали дарахтлар ва яна нон иси... хаёлимни ўғирлайди. Шунда юрагим ҳаприқиб, бир бошқача бўлиб кетаман. Соғинч орзуларимиз билан уйқашиб кетгандек.

Мана, бугун ҳам шу ўйлар оғушидаман. Фарқи: кишлоқда ўзгаришлар катта. “Катта”лардан энг аввал кўз олдимда нима гавдаланади, биласизми, водийни қувончга тўлдирган темирйўл. Қамчиқ довони орқали ўтган темирйўлда поезд ҳайқириғини тинглайман. Ҳайқириқ ортида миллионлаб ватанпарвар инсоннинг меҳнатию заҳмати-ни сезгандек, қалбимда ғурур ўсгандек, улғайгандек ҳис қиламан ўзимни. Бу дафъа тоғлар ҳам пастдек кўриниб кетади.

Қалбни улкан мақсадлар сари чоғловчи йўллар равон. Кук кучоғини тўлатиб-тўлатиб, чах-чахлаб парвоз қилаётган сайроқилар сафида қанот ёзиб учиб бораётган “пўлат қушлар” эса Ватанимиз байроғини тобора баландга кўтармоқ учун интилаётгандек.

Истиклол аталмиш зиё халқимиз қалбига нур индирди, бахт ёғдирди. Ана, тонғ чоғи мактаб сари ошиқаётган ўғил-қизлар кўзига боқинг. Тўй-томоша тўрида савлат тўкиб ўтирган боболар дуою насиҳатига қулоқ

осинг. Момоларни тингланг. Баридан бахт ховури таралади ва негадир шу дамда бувимнинг бир гапи, ёмғир тупроқ ҳидини димоғимга элтгани каби, дилга таскин беради: “Сенда ўз орзуларим ушалаётганини кўраман, қизим”.

“ШАРҚИЙ ДАРВОЗА”

Қуёш ҳовлимиз тўридан бош кўтаради. Эҳтимол, ойнаванд айвонимиз ҳам шунга мос қурилган чиқар: тонг чоғи шуълалар ўзини ойнага солиб, ажиб манзара касб этади. Худди шу томонда – шарқий тарафда икки ярим минг йиллик тарихга эга тепаликлар бор.

Мингтепа... Нарвон оша қарасам, офтоб нур таратиб, тепаликлар кўксида қуллуқ қилаётгандек кўринади.

Болаликдан тарих билан ёндош яшаш, унинг бағрида улғайиш, бора-бора кўнгилда унга меҳр ва ҳатто қизиқишларнинг ортишига сабаб бўлар экан. Отам Мингтепа ҳақида айтиб берган ҳақиқатлар билан эса кейинчалик... дарсликларда танишдим.

Фарғона юртимизнинггина эмас, балки Марказий Осиёнинг ҳам кўҳна ҳудудларидан. Мингтепа эса шу қадим заминнинг муҳим

марказий қисми. Асрлик тарихга эга Эрши шаҳридан бугун Марҳамат туманида азим ёдгорликлар сақланиб қолган. Кунлар исиши билан археологлар ғимирлаб қоладиган тепаликлар бағрида неча минглаб сир-синоат бор. Марҳаматликлар Мингтепани очик осмон остидаги музей деб атайди.

Авваллари бутун бир давлат маркази бўлган шаҳар бугун тепаликлар остида. Бу ердан топилган мудофаа деворлари, ички ва ташқи йўллар, қалъа ўрни, кўплаб осори атиқалар нафақат қадимшунослар учун, балки биз учун ҳам қимматли, қадрли. Улар тарихни янаям яхшироқ билмоққа йўл очиб келаётир.

2012 йилдан бошлаб ўзбекистонлик археологлар Хитой археология институти мутахассислари билан Мингтепа харобаларини ўрганиб, Эрши шаҳрининг, умуман, тарихнинг янги қирраларини очмоқдалар. Қазималар давомида шаҳарнинг икки қисмдан иборат экани, мудофаа қисми ҳақидаги янги маълумотлар, минглаб сопол парчалари топилди. Мингтепанинг тахминий харитаси яратилди. Ана шу харитага асосланиб археологлар изидан борсак, шаҳарнинг икки, яъни шарқий ва жанубий дарвозалари бўлгани аёнлашади. Буларнинг бари қадимги Хитой манбаларидаги маълумотларга айнан мос келади.

Тарихан олиб қаралса, Эрши шаҳридан Буюк ипак йўли ўтганлиги шаҳарнинг муҳим савдо маркази бўлганлигидан далолат беради. Айнан шунинг учун ҳам тепаликларга олиб боровчи йўлнинг номи “Буюк ипак йўли” деб номланади. Самовий отлари билан машҳур бўлган ушбу масканда неча асрлар аввал турнақатор карвонлар тўхтаб ўтган, бу эса халқлар, маданиятлар бирлашувига, тарихлар туташувига замин ҳозирлаган.

Бугунги кунда “Катта тош” маъносини англатувчи Эрши (ҳозирги Марҳаматтумани) ни кезар экансиз, тепаликларга дуч келасиз. Уларни мана шу “катта тош” парчаларига менгзайсан киши. Қоровултепа, Зиндонттепа, Зиғиртепа, Жунғортепа, Алитепа, Норкатепа, Мунчоқтепа, Лўмбитепа, Қораттепа, Оқ тўнли ота... ҳар бирининг ўз тарихи, ўз кечмиши, ўз афсонаси бор. Андижон вилоятида рўйхатга олинган уч юзта маданий мероснинг учдан бир қисми ҳам айнан мана шу тепаликлар номи билан боғлиқ.

Мингтепа – мен туғилган тупроқ. Унинг бағрида болалигим билан улғайдик. Тепаликлар болалигимни елкасига опичлаб, кўнглимга минг бир орзулар жойлади. Ҳамон эсимда, қўшни болалар билан энг баланд тепаликка чиқиб, узоқ-узоқларни кўзлаганимиз, нигоҳларимизни олис-олислар-

га қадаганимиз; отларнинг дупур-дупурию карвонлар садосига, тепаликларнинг сукутига – тарихнинг айтмишларига ўзимизча кулоқ тутганимиз. Ана шундай кунларнинг бирида тепаликлар бағрида булоққа дуч келганимиз ёдимда. Мингтепа бағридан муъжиза топганимиз бизни қанчалар қувонтирганди ўшанда. Булоқ сувидан тўйиб-тўйиб ичгандик. Ўша қайнар булоқ бизни тепаликларга ошно қилиб улгурганди.

Бугун ҳам қуёш ҳовлимиз тўридан чиқди – Мингтепанинг шарқий дарвозасидан нур соча бошлади. Кўхна Эрши ўз бағрида сақлаётган сир-асрорларнинг очилишига янги қадам бўлиб кириб келди гўё.



ОҚ КЕМА

Оролқумда яшовчи боланинг бобоси эр-так айтди. Бир вақтлар тулиб-тошиб турган денгиз ҳақида. Энди бола челақда сув кута-риб, Оролнинг қумга тўлган бағрига сув қуяр, митти орзулари эса уни уйғотолмасди. Бир челақ сув бола кўнглига, унинг дарё-дарё орзулари эса Оролга умид берди. Кун сайин бепоён кенгликка айланиб бораётган Орол бағри қурий бошлади, боланинг умидлари суна бошлади. У денгизчи бўлмоқчи эди...

Ўрозбой Абдураҳмоновнинг “Орол қандай қуриди?” номли китобида шундай сўзлар келтирилган: “Денгиз қирғоғидан тобора олислаб бораётган оқ кемани кўрган-мисиз? Хайрлашаётиб юракларда айрилиқ туйғулари нақадар жўшади. Келинг, яна бир бор кўз олдингизга келтиринг, оқ кема қирғоқдан олислаб кетмай, аксинча, денгизнинг ўзи оқ кемани қирғоқда етим қолдириб, сувлари тортилиб, кўз олдингизда ғойиб бўлади...”.

2016 йил. Университетда бизга ўтилаётган дарслар орасида экология фани ҳам бор. Атроф-муҳитнинг ифлосланиши, маҳаллий, минтақавий, глобал муаммолар... барини

йил давомида секин-аста ўрганиб бордик. Улар ичида Орол денгизи муаммоси дунёвий миқёсдаги умумий муаммомиз, умумий дардимиз эди. У ҳақда ёзадиган бўлдик. Негадир миямга умумий гаплардан бўлак ҳеч нима келмайди. Ҳолбуки, мактаб чоғидан география фанида ўқитилган. Орол дарди билан аввалдан – болаликдан танишмиз!

Ҳар бир материал учун вақт керак. Баъзан соатлар, баъзан кунлар, ойлар... йиллар. Орол ҳақида ёзиш одамни ўйга толдиради. Қанийди, қоғоз қоралаган билан унинг қақраб ётган бағри сувга тўлса, тўлқинлар қайта мавжланса, ўша биз соғинган оқ кемаларнинг елкани қулоч ёйса, кўкка кўтарилса.

Орол – Марказий Осиёнинг ёпиқ сув ҳавзаси эди. Тўрт томони чўл. Тўрт томони қуёшдан товланиб турувчи қум зарралари. Чўлда кетаётган одамнинг жонига оро кирувчи ҳам мана шу денгиз шабадаси. Унга келадиган, уни тўлдириб турадиган нажот эса Амударё ва Сирдарё эди.

Орол тарихини билмаган ким бор, унинг ўтмишидан ким беҳабар?! Ярага туз сепган каби қалқиб тушади киши. Лекин айнан мана шу ўтмиш денгиз номини ўзгартирди, айнан мана шу тузлар денгиз бағрини сув ўрнига тўлдирди.

Олтмишинчи йиллардан бошлаб Орол

биздан узоқлаша бошлади. Икки дарёнинг суви ҳисобсиз суғоришга сарфланди.

1989 йили Орол денгизи иккига – катта ва кичик Оролга бўлинди.

Оролбўйи аҳолиси эрта тонгдан юзларига шамол келтирган туз билан уйғонишди, ҳайвонот олами тузланиш деган касалликдан йуқ була бошлади. Чунки гиёҳларнинг япроқларида томчи шудринглар ўрнига тузлар қўним топди, энди денгизнинг майин ва соф шабадаси соғинчли ўтмишга айланди, аввалги тўлқинлар овозини сукунат эгаллади.

Одамлар “денгиз қуриди” деб эмас, у кетиб қолди, бизни ташлаб кетди дея таъкидлашарди. Денгиз – халқнинг нони эди!

Бир неча йил аввал мутахассислар томонидан шаҳарлар бўйича бир кунда неча литр сув ишлатилиши юзасидан ҳисоб-китоблар олиб борилди. “Россияда 150 литр, Германияда 200 литр, Тошкентда эса 700 литр”. Бу одам бошига бир суткалик сув сарфи. Бироқ аслида бундай ҳисоб-китобларда ўртача натижа олинади. Оролбўйи халқларининг курсаткичи атиги 5 литр...

2017 йил. Май ойи натижаларига қўра, юртимизда ерости сувларининг ярмидан кўпи тугаш хавфи остида эканлиги эълон қилинди. Ер устидаги денгизимизнинг че-

кениши, ер ости сувларимизнинг тобора камайиб бориши барчамизни хушёр торгтириши керак. Бунинг олдини олиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 4 майда имзоланган “2017–2021 йилларда ер ости сув захираларидан оқилона фойдаланишни назорат қилиш ва ҳисобга олишни тартибга солиш чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори кўнгилга таскин беради, халқимизга одамларимизга яна бир масъулиятни юклайди. Ахир, сувни асраш – бу келажакни асраш дегани.

Барчамизга маълум, Юртбошимиз ташаббуси билан 2017–2021 йилларда Оролбўйи минтақасини ободонлаштириш ҳамда Мўйноқ туманини 2017–2018 йилларда иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича махсус қарорлар қабул қилинди. Бунинг натижасида, айни пайтда, ушбу ҳудудда ҳам умидбахш ўзгаришлар юз бермоқда. Мисол учун, шу йилнинг 1 июнида Мўйноқ шаҳрига 101 километрлик “Кўнғирот – Мўйноқ” автомагистрал сув тармоғи тортилиб, ичимлик суви олиб келинди. Эътиборлиси, ушбу муҳим лойиҳа ниҳоятда қисқа вақт – атиги беш ой ичида амалга оширилди. Бу воқеа мўйноқликларга чексиз қувонч ва умид бағишлади. Таъбир жоиз бўлса, мусаффо об-

хаёт Орол кетгач хувиллаб қолган юракларга тошқин дарё сингари оқиб кириб, уларни тўлдиргандек бўлди. Энг муҳими, Мўйноқ аҳлининг кўнглида келажакка умид ва ишонч туйғулари қайта уйғонди.

*“Оролнинг жони оролчалар қўлида,
Оролчалар эса одамларнинг кўксида,
Одамларнинг кўкси эса бир-биридан сув
ичади”,* – деган эди таниқли шоир Муҳаммад Юсуф.

Одамларнинг кўкси бир-биридан сув ичади... Бир-бирига бўлган меҳрдан сув ичади. Меҳр бор жойда келажакка умид, ишонч асло сўнмайди.

ТЕКИН МАСЛАҲАТ

Китоблар – кадрдонимиз, сирдош, маслакдош ва йўлбошчимиз. Оддий кўринган оқ қоғоз қатидаги сўзлар дунёни турфараңда чиза олади. Китобхон яхши асар ўқир экан, у қаҳрамонлар ҳаётида яшай бошлайди: улар билан бирга кулади, гамга тўлади, баъзида саҳифаларга кўзёши томчилайди.

Газета-журналларни кузатар эканман, талаба-ёшлар, хунарманд, мусиқашунос, кутубхона ходимлари ва бошқа касб эгаларининг китобга муносабати, қизгин фикрла-

рини ўқиб қанчалар қувонаман. Аудиторияларда, китоб дўконларида, кутубхоналарда, ҳаттоки поезд станцияларида ҳам ёшлар қўлида китоб!

Бироқ, баъзан дарс якунида айрим тенгдошларим ўқитувчимиздан сўраб қолади: “Бизга қандай китоб ўқишни маслаҳат берасиз?”, “Қайси китобни ўқиган яхшироқ?”. Журналистика йўналишида ўқиётганим ва бу фаолиятга эндигина кириб келаётганим боис атрофдаги воқеа-ҳодисаларга аввалгидан-да синчков қарашга уринаман. Бундай саволлар ҳаммани бирдек қизиқтиради.

Пойтахт кутубхоналарида, институт-университетларда китоб тақдимотлари ўтказилиб, газета-журналлардаги янги нашрлар ҳақидаги янгиликлар узлуксиз бериб борилади. Бироқ бу ўғил-қизларнинг қанча қисмини қамраб олаяпти? Бир тенгдошимнинг: “Катталар китоб танлашда маслаҳат беришса!” – деган фикрини ўқиб қолдим. Чиндан, бу борада маслаҳат ҳар қадамда жоиз. Яқинда машҳур француз ёзувчиси Кафканинг яна нашрдан чиққан “Жараён” романини ўқиб тугатдим. Китобдан чиқарган хулосаларимни, айнан шу китобни тенгдошларимга тавсия қилмоқчи бўлдим. Мана шундай ўйлар оғушида борар эканман, ўқиш жойимиз олдида ҳар куни зумга

бўлса-да, талабалар хаёлини ўғирлайдиган янгиланган афишага кўзим тушди. Шунда тасаввур қилдим: афишадаги турли рекламалар қаторидан янги нашрдан чиққан китоблар ҳам жой олса. Ранго-ранг муқовадаги китоблар шаҳар кўчаларини безаб турса... Радиоларда ҳар тонг жаранг сочса, ойнаи жаҳонда бу ҳақда кўрсатувлар кўп ва хўп тайёрланса.

Яхши асар ҳамма даврда ҳам қўлма-қўл ўқилган, баҳс-мунозараларга сабаб бўлган. Бугун уларни саралаб мутолаа қилишда рекламанинг ўрни беқиёс. Шунда қандай китоб мутолаа қилиш кераклигини йўл устидаги “маслаҳат” орқали билиб олармидик?!



СОҒИНЧНИНГ УЧ СУВРАТИ

Қуёшни кўргим келяпти. Кўзларим қамашса-да, тик боққим, нурларида эркалангим келяпти!

Болалиқдан қишлоқда катта бўлдим. Ҳар тонг онамнинг сўзлари, қуёшнинг нурлари мени уйғотарди. Баҳорнинг офтобли кунларини орзиқиб кутардим. Баъзан қуёш чиқишини кўриш учун ҳаммадан олдин туриб нарвонга интилардим. Худди бу ёғдулар биринчи бўлиб бизнинг ҳовлимизни ёритадигандек туюларди. Унинг ранги қанақа? Отанинг, онанинг меҳрини таърифлаб беролмаганим сингари, бу нурларни ҳам таърифлашим қийин. Билганим шуки, улар бутун оламга жон бахш этади, менинг юрагимга эса илиқлик.

Катта шаҳар, катта мақсадлар. Шунда ҳам йўлларимни нурли қуёш ёритиб турди.

Онажон! Бугун узоқроқдаги деразадан эндигина мўралаётган нурларга қараб ўйлаб қолдим. Анчадан буён нурдан баҳраманд бўлибман-у, бироқ осмонга яхшироқ боқмабман, қуёшга тик боқмабман, ўша менинг болалигимдаги қуёшга!

Қуёшни кўргим келяпти!

* * *

Математика иродани мустаҳкамлайди. Доскада ёзилаётган рақамлар кўзимга хаёлларимдек чалкаш кўринади. Ҳеч қачон кўлимдан қўймайдиган сувратлар орасидан Ойбекка кўзим тушади. Сочлари дўпписидан тошиб тургувчи ўша Ойбекка! Энди кўзларим олдида гуллаган наъматак суратини чиза бошлайман.

Кадрлигим ун олти ёш. Тонг отди. Севимли гуллар яна гуллабди. Чоғроққина хонада Ойбекнинг шеърини ўқир эканман, хаёлларим беихтиёр маҳалламиз бошида гуллаган наъматак томон ошиқади. Пастқам деворга бўйлашган бутанинг оппоқ гуллари ҳам ложувард осмонга зеб беришни истагандек юқорига интиларди. Бутанинг, оппоқ гулларнинг, хазонрезда кафтларни тўлдиргувчи меваларнинг эгаси йўқ. У худдики, куча бошига илинган мунчоқ. Қўшни йигит ўша оппоқ гуллар тасвири туширилган сувратни совға қилди. Унинг четига эса ёшликнинг беғубор сўзлари битилган: “Бу бизнинг наъматак!”. Ўйларим шу сўзлар билан тугаганидек, чалкаш рақамлар ҳам доска четида бирлашди: “Математика иродани мустаҳкамлайди!”.

* * *

Январь. Тун деразани чертиб ўтади. Рангсиз осмон энди қора тусга кира бошлайди. Дарахтларнинг ялангоч шохларини ҳар замон-ҳар замон туртиб ўтиб кетаётган шамол нафаси кўксингга урилади. Осмондаги булутлар аста-секин пастлай бошлайди, атрофга ёйилади, сўнг юрагингга кириб боради. Сукунат. Шарқироқ сой лаблари ҳам бирор сўз демайди.

Сен деразага, дераза эса хира чироқлар нурига суянганча сенга боқади. Тун сувратини қоғозга кўчира бошлайсан. Қандайдир ранглар етишмайди. Қидира бошлайсан: туманга кўмилган симёғочлар, ғира-шира чироқлар...

Шунда хаёлан эндигина тупроқни ёриб чиқаётган куртаклар саси қулоғингга эшитилади. Бойчечак! Борлиқ қучоғига яшиллик югуради, жон ина бошлайди. Қоғознинг четига эса соғинч расми туширилади...



РАҲМАТ СИЗГА, ТОҒАЙ МУРОД!

Адабиёт – кўнгилга яқин, кўнгилга малҳам. Хонага кириб келган ўқитувчи бу гал мавзуни айтмади-да, биз орзиқиб кутган маърузаларидан бирини бошлади: “У дунё талашмади, фақат ўқиди, фақат изланди. Бир-биридан гўзал қиссаларини яратди. Бу билан у “Мана мен кимман!” деган бўлди. У ўзбек халқига ҳайкал қўйди”.

Устоз бизга жўшиб сўзлаган бу сўзлар Тоғай Мурод ҳақида, чин маънода ўзбек халқига ҳайкал қўйган ёзувчи ҳақида эди.

Қўлимда “Отамдан қолган далалар” романи. Ҳақиқатан, ям-яшил далани тутиб тургандай, юрагим ҳаприқиб кетди. Китобни ўқишга тутиндим. Бутун умр ерига ишлов бериб, рўшнолик кўрмаган биринчи авлод – Жамолиддин кетмон, ўз ерига ўзи эгалик қила олмаган Ақраб кўрбоши, “соддалигидан манқурт ҳолатига келиб қолган” кенжа авлод Дехқонқул... ҳар бири ўз ҳолича алоҳида дostonдек ўқилади, оҳанги қўшиқдек. Балки бунга сабаб ёзувчининг халқ дostonларига эшлигидандир. Балки ундан кенгликлар, далалар нафаси келиб турганидандир.

Китобда 1991 йилгача бўлган воқеалар уч давр тақсимида қамраб олинган. Бир тенг-

дошим асарнинг учинчи воқелиги таъсирли эканлигини айтиб қолди. Лекин романнинг ҳар сатрида, ҳар ёзилган сўзида юракка етиб боровчи дард, халқимиз ўтмишидан чизгилар бор, менимча. Бунда бутун умр далада кетмон чопиб, тер тўккан деҳқон сиймоси биргина Деҳқонқул образи орқали очиб берилади. “Деҳқон – бағри қон” деган иборанинг айнан шу даврга қарата айтилгани ҳам бежиз бўлмаса керак.

“1980 йил. 5 сентябрь. Ушбу йил коммунизм йили бўлади. Болалар беш кун ўқиб, пахта далаларига йўл оладилар” (асардан). Бу ўша даврдаги энг катта фожиалардан эди. Бу ерда бағри қон фақат деҳқон эмас, балки болалар, аёллар, бутун юрт, ҳатто тупроқнинг ҳам бағри қон, ғамга тўла.

Тоғай Мурод асарларидаги қаҳрамонлар ҳақида шуни айтиш мумкин: “Асардаги одамларга китобхоннинг ўхшагиси, уларнинг ўрнида бўлиб қолгиси келмайди. Улардан фақат ўрнак, сабоқ олса бўлади”.

“Саодат” журналининг 1991 йилги сонларида “Изтироб овози” номли мақолани ўқиб қолдим. Халқимизнинг уруш пайтларидаги қийинчиликлари тасвирланган. Изтироб овози қандай бўлади ўзи?! Уни қандай эшитиш мумкин?! Мен мана шу изтироб сасини Деҳқонқул бошланғич мактаб дав-

рида синфдоши Зиёднинг пахта даласида заҳарланиб ётганида, кичиккина гўдак айнан пахта терими сабаб вафот этганида, онанинг йиғисида, аёллар ўзига ўт қўйиб ёқиб юборганида, далаларда куйлаб юрган кизлару ўғилларнинг озурда овозлари ортида ва яна... далалар сукутида эшитгандек бўлдим.

Асарда бир саҳифада Михаил Дудин исмли шоирнинг шеъри келтирилади:

*Аёллар ёнмоқда Ўзбекистонда,
Бу ҳақда ёзилмас бизлар томонда.
Бу қандай оғриқдир шўрлик гулларни,
Оловга йўллаган ёққан гулханни.
Бу ҳақда ёзилмас, айтилмас сўзлар,
Кул устида қанот қоқмас қақнуслар.
Уларга аёндир мен билмаган сир,
Не сабаб оловга бўлдилар асир...*

Дехқонқулнинг аёли ўзига ўт қўйди. Бу даврда республика бўйлаб 753 аёл тақдири шундай якунланди. Аёл ҳар даврда ҳам сабрли, бардошли. Бу қандай замон эдики, метиндек қалбларни ҳам ўтга ташлади.

Ҳақиқатан, асардаги тасвирланган ўзбекларнинг кўз ёши пешона терларига қоришиб кетган. Лекин шунда ҳам деҳқоннинг, ўзбекнинг қалбида умид оппоқ пахтадек барқ ураверди.

Бугун менинг олис қишлоғим, Фарғона водийси йўлларидан то Сурхон воҳасигача ҳам далалар ястанган. Эгатлардан пахталар тошиб туради. Шукр, энди бари бошқача. Тупроғимиздан мустақиллик иси келади, деҳқонларнинг юзидан қувонч аримайди, болалар-у қарияларнинг кўзларига шукроналик ҳисси, бахт сурати чизилган гўё.

Қўлимдаги асарга қайта боқарканман, бугун чиндан ҳам яшил далалар ўз қўлимизда эканлигини ҳис қилдим.

“Отамдан қолган далалар”ни тўлиб-тўлиб ўқидим, кулиб-кулиб ўқидим, юрагимни тилиб-тилиб ўқидим. Ўзбек халқининг тарихини, ўтмишини, соддадиллигию бардошини Деҳқонқулнинг нигоҳларидан ўқидим.

Кўз олдимда турган дала эса отамдан қолган мерос. Бунни яхшироқ англаш бахтини берганингиз учун раҳмат сизга, Тоғай Мурод!

ДОРБОЗ

Кундан-кун файз кириб бораётган кутубхонамдаги китоблар билан суҳбатлашаман... Баъзида уларнинг мазмуни ҳақида, баъзан эса навбатдаги ёзилажак материал тўғрисида. Бу гал нигоҳимни улуғ шоиримиз

Абдулла Ориповнинг илк китоби – “Митти юлдуз” ўзига тортади. Уни варақлар эканман, илк саҳифалариданок дорбоз ҳақидаги мисраларга кўзим тушади:

*Булутларга ёндош,
Осмон остида
Киприкдаги ёшдай турибди дорбоз...*

Кутубхонадаги суҳбат янги мавзу туғилишига сабаб бўлади. Дор устида ўйнаётган киши ҳолати кўз олдимга келади. Унинг яхлит тасвири билан қизиқа бошлайман: киприкда ёш қалқиб-қалқиб турибди, кўзингни юмганинг ҳамонок, узилиб тушади. Дорбозлик асли нелигин шугина мисрага фалсафий жо этолган шоирга таҳсинлар ўқийсан.

Болалик пайтларим. Ёз мавсуми келди дегунча, қишлоғимиз марказида дор ўйинига чорлов ён-атрофни тутиб кетар, биз болалар бир-биримизни турткилаб-турткилаб томошага ошиқардик. Ўйинни томоша қила туриб, юрагим орқага тортарди. Ўша дамда ён-атрофни “Баракалла, Юнусали!”, “Яшанг, Юнусали ота!” деган олқишлар тутиб кетарди. Бугун ҳам туманимиз марказида бўлаётган дор ўйинлари томошасига борсангиз, “Юнусали отанинг невараси-да, бу ботир йигит”, – деган гаплар қулоққа чалинади.

Марҳамат тумани марказига кираве-ришдаги уйлар қаторида яшил деворгул-лар билан уралгани ҳамманинг эътибори-ни тортади. Бирор марҳаматлик йўқки, бу ерга келмаган, отанинг суҳбатини олма-ган, бир пиёла чой устида мириқиб гурунг қилмаган бўлса. Дарвоза олдига яқинлашар эканман, бир гуруҳ меҳмонга кўзим тушди. Юнусали отанинг суҳбатини олишга менга ҳам навбат етармикан, деб ҳовлига кириб бордим. Меҳмонларни боғ томонга бош-лаб кетган дорбоз ота мени Зухра аяга топ-ширди, бир томондан яхши бўлди. Дорбоз отанинг қаҳрамонликларини аввал бошда уларнинг умр йўлдошларидан сурамоқчи бўлдим. Дорбоз бўлмоқлик учун катта юрак керак, дорбознинг умр йўлдоши, онаси, бу-виси бўлиш учун эса янада улканроқ юрак зарур, назаримда. Зухра ая ана шундай аёл-лардан. Юнусали ота ҳозир дор уйнамаёт-ган бўлса ҳам, уғиллари, набиралари ота касбини давом эттиришяпти. Зухра аянинг: “Уғилларимниям, невараларимниям дор уйини олдига ўзим етаклаб борганман”, – деганлари ота касбига муҳаббатнинг бош сабабчиси эканидан далолат.

Олти ёшли Достон – кенжа дорбоз. Бола-кайнинг кўзларида қатъият бор. Мени бутун бошли боғ билан таништириб чиққан ҳам

мана шу кичкина бўлди. “Дорбозлар уйи” деб номланадиган бу боғга кирган одамнинг хайрати ошади. Бу оддий боғ эмас. Ариқ юзида нилуфарлар очилган, ҳар ўн қадамда супалар ва бу жой дам олиш масканига айланиб улгурган. Дов-дарахтларга ниҳоллик пайтлариданоқ шакл берилган, бугун эса шохлари бўй тортиб кетган бу дарахтлар устида супачалар ўрнатилганига нима дейсиз? Боғ ичида яна бир хона бор. Кирган инсон дорбоз отанинг ҳунармандчилик маҳоратига қойил қолади. Қадим омочлардан тортиб, бугун деҳқонга дастёр меҳнат қуролларининг барини учратасиз.

Юнусали ота билан дорбозликнинг қувончи ҳақида гаплашганимизда, дор ўйинига уста олти ёшли набирасини кўрсатиб: “Мана менинг бахтим, мана менинг қувончим” – деди. Ҳақиқатан, касби давомчисига қараб инсон энг катта бахтни кўра олади.

*Қиличнинг дамидай арқон устида
Кузларини юмиб юрибди дорбоз.*

“Дорбоз”ни қайта-қайта ўқийман, арқон устида тойинмай, “нақадар эпчил ва чаққон” бораётган дорбоз кўз олдимда гавдаланади. Бу тасвир, бу манзара ҳаётда қоқилмаслик сабоғини бераётгандек бўлади менга.

ИНСОН МАНЗАРАЛАРИ

Франц Кафканинг “Жараён” романи китоб жавонимдаги илк ўқиганим жаҳон адабиёти намуналаридан. Асарни ўқиб тугатгач, унда тасвирланган жамиятнинг устидан гоҳ кулгинг келади, гоҳ йиғлагинг. “Ошкора қотиллик қиссаси” асари билан танишишдан олдин, унинг муаллифи – колумбиялик Габриэль Гарсиа Маркес ҳам Кафка асарлари билан кўпроқ танишишга интилгани ҳақида ўқиб қолдим. Кафканинг “Жараён”и қанчалик мулоҳазага чорласа, ушбу қисса ҳам менда шунчалик қизиқиш уйғотди.

Йигирма бир ёшли Сантьяго Насарнинг ўлими тасвирланган қиссада ёзувчи ижодкордек эмас, балки терговчидек иштирок этган, назаримда. Асарнинг бошида португалиялик драматургнинг: “Такаббурлик билан ҳам меҳр қозониш мумкин”, – деган сўзлари келтириб ўтилган. Бу ерда такаббурлар ким? Синглисининг номуси туфайли қотилликка қўл урган, одамлар орасида нафратга эмас, балки меҳрга лойиқ топилган ака-ука эгизакларми? Китобни ўқир эканман, Сантьягони туҳматга қўйган Анхела

Викарионинг бир гапи эътиборимни тортди: “Такаббур эркакларни жиним суймайди”. Унинг бу гаплари ўзи турмушга чиққан Байярдо Сан Романга қарата айтилган эди. Демак, бу даврда одамларнинг кўпчилиги такаббур эди.

Сантьягонинг бевақт ўлими епископнинг улар яшайдиган қишлоққа ташриф буюрмагани билан боғлиқдек туюлади. Ҳаттоки, епископ ҳам қадам босмай диган бу қишлоқда кимнинг ким билан иши бор? Биргина уни кутиб олиш учун одамлар уйидаги борини олиб чиқадилар. Қулоқни қоматга келтириб юборувчи хўрозлар қичқириғи қишлоқни тутиб кетган. Худди, бутун қишлоқ одамларини “уйқу”дан уйғотаётгандай, ўзлигини билишга чорлаётгандай.

Қотиллар яширинган сут дўконининг эгаси: “Фақатгина ёш болаларгина ҳамма нарсага қодир”, – деган фикрни айтиб ўтади. Педро ва Пабло ҳам худди ёш болалардек ортиқ ўйлаб ўтиришмади. Лекин ўқувчи қаҳрамонлар кечинмаларини кузатар экан, эгизакларнинг ўзи ҳам кимдир уларни тўхтатиб қолишларини чин дилдан истаётганликларининг гувоҳи бўлади. Аммо ҳеч ким уларни қайтариб қолмади. Бунда бари ошқора тарзда юз берди.

Асар билан танишаётган ўқувчи ҳам беихтиёр ошкора қотилликни кузатган одамлар орасида юради, улар билан бирга Сантьяго Насарнинг ўлимига гувоҳ бўлади. Бу эса, ёзувчининг маҳоратидан далолат.

Чавақланган Сантьягонинг ички аъзоларини ўз қўллари билан ушлаб, уйигача кириб бориши менга Ўткир Ҳошимовнинг “Икки эшик ораси” романидаги Кимсаннинг кўз олдида устига бомба тушиб, жон таслим қилаётган дўсти ҳолатини эслатиб юборди. Ушбу икки саҳна китобхон кўз ўнгида равон гавдаланади. Бундай саҳналарни ўқувчи “кўз юмиб” ўқийди. Ёки Сантьягонинг ўлимидан сўнг унинг танасини қайта-қайта текширишларини олайлик. Шаҳардаги биттагина шифокор ҳам, аксига олиб, сафарга йўл олган. Ғафур Ғуломнинг “Шум бола” асарида майитни ювиш иккита муштумдек болага топширилиши, бундай ишлардан хабари йўқ болаларнинг катта хатога йўл қўйгани ва қочиб қолганликлари ўша пайтдаги замоннинг нотинчлигидан дарак берган эди. Худди шу каби ушбу қиссада ҳам нима сабабдан ўлим топаётганини сўнгги дақиқасигача билмаган Сантьягонинг ҳаттоки яраланган танаси ҳам ҳурмат топмади. Бу мудҳиш

воқеага фақатгина ака-ука эгизаклар эмас, балки бутун бошли одамлар жамоаси айбдор эди.

“Номус бу – муҳаббат”. Асарни сўзлаб бераётган қаҳрамоннинг онаси унга бир пайтлар шундай деб айтган эди. Китобни ўқиш давомида, демак, бу даврда муҳаббат бўлмаган экан-да, деган ачинарли хулосага келиш ҳам мумкин.

Анхела Викарио – “фаришта ўринбосари” деган маънони англатувчи исм. Лекин бу маъно қизнинг ёлғони туфайли ўқувчининг хаёлидан кўтарилади. Кейинчалик, унинг ўн йил давомида хатлар битиши, лекин битта ҳам жавоб олмаслиги, ўн йилдан сўнг эса у битган хатларнинг ҳеч бири очиб ўқилмаганлиги – Анхела учун жуда катта жазо бўлди деб айтса ҳам бўлади.

Ошкора қотиллик – ҳамманинг кўз ўнгида юз берди. Орадан йигирма уч йил ўтса ҳамки, бу қотилликнинг асосий сабабчиси топилмади. Асарни тугатган ўқувчиларнинг аксари қотиллик сабабчиси деб Анхелани айтса, яна кимдир унинг акаларини айблайдди.

Бу ерда қотил ака-ука эгизаклар, ёлғон сўзлаган Анхела, эшикни кулфлаб қўйган хизматкор қиз – Дивина Флор, қотилларни

тўхтатиб қола олмаган сутчи аёл, бир оғизгина огоҳлантиришни ўзига эп кўрмаган халқ, омма, қишлоққа темирўл қуриш режасини охирига етказа олмаган Бройян, саёҳатга кетиб қолган биттагина шифокор, қишлоққа қадам ҳам босмайдиган епископ ва ниҳоят, гулларга қараб ўлимни эслайдиган, ўн олти ёшли хизматкор қиз Дивина Флорни муҳаббатдан маҳрум қилган Сантьяго! Буларнинг барчаси мана шу машъум фожиа сабабчилари.

Сантьягонинг ўлими гўёки ўзига ўзи пичоқ урган жамият аҳволоти, чиркин ҳолга келиб қолган замон қиёфаси, такаббурлик билан муҳаббат қозонаётган инсон манзаралари эди.



ҲАЛОЛ

Кўлимда Тоғай Муроднинг “Юлдузлар мангу ёнади” асари. Бу галги мутолаа ҳар сафаргидан бошқача. Тўхталиб-тўхталиб ўқийсан. Чунки ҳар бир саҳифада ор-номус, ғурурнинг салобати бор. “Полвонлик бизга ота мерос. Пуштдан пуштга, қондан-қонга ўтиб келяпти. Полвонликнинг кўзга кўринмас, тил билан тушунтириб бўлмас шундай сирлари борки, уни фақат томирида полвонлик қони борларгина билади, биз биламиз. Бу сирлар ҳеч бир китобда йўқ”. Бу қахрамонининг ҳақиқати.

Бувимнинг дастурхон олдида ўқиган дуолари доим мен учун муҳим бўлиши керакдай туюлади. Болалиқдан миямизга қуюлиб қолганидек, дуо якунланмагунча барча жам бўлиб тинглаши, кейин ишга, ўқишга тарқалиши одат. Узундан-узоқ дуоларни тинглар эканман, бувим айтадиган бир ният доим эътиборимни тортади: “Ўғилларимизнинг елкаси ер кўрмасин, илоҳим”. Ҳозир ким ҳам кураш тушарди, бувим ажойиблар-да, деб қўярдим ўзимча. Ушбу ният замиридаги “Одамлар орасидан ғурур кўтарилмасин” деган муҳим ҳикматни кейин англаб етдим. Қиссани ўқирканман,

кўз олдимда бувимнинг дуога қўл очганлари, ўзини курашга чоғлаётган полвонлар, жонини ҳовучида тутиб турган одамлар... қулоғим остида эса “Ҳалол!” деган ҳайқириқ.

Шундан сўнг атрофга полвонларнинг кўзи билан қарамоқчи бўлдим, улардан утажак умр бўйилик кечинмалар мени тобора қизиқтира бошлади. Уддалай олмадим. Ғурурнинг юки хаёлларимга оғирлик қилди. Атрофдан полвонлар кўзини қидирдим. Қай томонга бормоқ керак? Қуёшга бағрини берган воҳагами ёки довон оша водий томонгами?! Ҳалиям тўй-томошалару сайилларда одамлар ўраб олган “ғурур майдонлари”га дуч келармиканмиз?

Халқ ғурури – келажак дегани. У йиқитмайди, қаддингни тик тутиш учун куч беради, кўзларга тик қарамоқликни ўргатади ва баъзан йиқилганингда яна қайта майдонга йўл очиб берадиган ҳам айнан ўша – ғурур! Полвоннинг афсуси эса дунёни титратади. Хўрсиниқ билан майдонни тарк этаётган полвон ҳолати халққа кўчади. Мана шу ўйлар билан хаёлимда тарихдаги кураш майдонларига кириб боргандек бўламан.

Урф-одатларимизни ўзида борича сақлаб келаётган халқ оғзаки ижоди намуналарига қарасак, “Алпомиш”даги Барчинойнинг шартларидан бири кураш ўйини эканини

кўрамиз. Демак, ўзбек миллий кураши бугунги кунгача қадим ва шарафли йўлни босиб ўтган, илдизи тарихга туташ. Ҳозирги кунда халқаро спорт луғати таркибидан ўрин эгаллаган “таъзим”, “кураш”, “ҳалол”, “тўхта”, “ёнбош” каби атамалар неча-неча асрлар ошиб, бизгача етиб келган.

Фарғона канали қурилишида полвонларнинг кўрсатган жонбозликлари Саид Аҳмаднинг “Уфқ” асарида моҳирона тасвирланган. Уларнинг куч-қуввати, тантилиги кимларни ҳайратга солмаган? Шундан биламизки, халқ юкини қўлидан оладиган, оғирини енгил қиладиган ҳам улар. Асрлардан-асрларга ўтиб келаётган полвонлар авлоди занжири узилмаслиги лозим, чунки улар халқимиз орасида ғурур намунаси. Айтишларича, кўп давраларда елкаси ер кўрмаган полвон йиқилса, майдондан чиқиб кетади-ю, қайтиб кирмайди, қишлоғига боришга ҳам орияти йўл қўймай, сарсон-саргардон кезинади. Қачонки, ўзини йиқитган полвонни мағлуб қилса, яна кураш белбоғини қайта тақишга ўзини ҳақли деб билади. Полвон даврага киради, бу эса ё мағлубият, ё галаба остонасига қадам қўйди дегани. Бироқ унинг елкаси ерга теккани – йиқилгани.

Шу каби хаёлларим сабабчиси бўлган китобни тугатиб, кутубхонадан чиқар эканман,

қаҳрамоним Бўри полвоннинг бир гапи оғир
ботиб, уйга толдираверади:

“...авлодлар алмашгани сайин... юрак
йўқолиб боряпти!

Жасад бор! Ақл бор!

Тўрт муча бор! Куч-қувват бор!

Юрак йўқ!

Кўкрақда жон бор!

Юрак йўқ, юрак!..

Фарзандлар ҳаётга бепарво қарайди”.

* * *

Пойтахт кўчалари янаям кенг кўриниб
кетаётир. Кечагина эълон қилинган янгилик
ёдимга тушади: “Кураш” миллий спорт тури
тарихда илк бор XVIII ёзги Осиё ўйинлари
дастурига расман киритилди”. Кўз олдимда
отамерос кураш сирлари билан рақибларини
даст кўтариб отаётган ўзбек полвонлари...
кулоғим остида эса “Ҳалол!” деган ҳайқирик.



МУНДАРИЖА

“Дурра”дан ҳаётгача.....	45
Бахт ҳовури.....	51
“Шарқий дарвоза”.....	53
Оқ кема.....	57
Текин маслаҳат.....	61
Соғинчининг уч суврати.....	64
Раҳмат сизга, Тоғай Мурод!.....	67
Дорбоз.....	70
Инсон манзаралари.....	74
Ҳалол.....	79

Adabiy-badiiy nashr

Zulxumor Orifjonova

SOG'INCH SUVRATLARI

Musahhih

Gulchehra Azizova

Musavvir

Uyg'un Solihov

Sahifalovchi

Muharram Zoyitova

Nashriyot litsenziyasi AI № 170 23.12.2009.

Bosishga ruxsat etildi 23.05.2019. Bichimi 70x90 ¹/₃₂

Ofset bosma. «PT Serif» garniturası. 5.75 nashr t.
5.5 bosma t. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 290.

«Navro'z» nashriyoti, Toshkent shahar,
Amir Temur ko'chasi, 19-uy.

«Saydana-Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh. Qamarniso, 3. Tel.: +99891 162-08-43.
E-mail: Saydana-print@mail.ru